

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI**

AJINIYOZ NOMIDAGI NUKUS DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI



**Botanika, ekologiya va o'qitish metodikasi kafedrası
Zoologiya, odam morfologiyasi va o'qitish metodikasi kafedrası**

**5110400-Biologiya o'qitish metodikasi yo'nalishi
4-kurs talabasi *Rahimova Dilfuza Bozorboyqizi*ning**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

O'QUVCHILARNING O'QUV FAOLIYATINI TASHKIL ETISHDA MUSTAQIL ISHLARNING ROLI

Ilmiy rahbar b.f.n., dot.:

Ajiev A.B.

Kafedra mudirib.f.n., dot.:

Otenova F.T.

Kafedra mudirib.f.n., dot.:

Allamuratov Sh.T.

Bitiruv malakaviy ishi Botanika, ekologiya va o'qitish metodikasi, Zoologiya, odam morfologiyasi va o'qitish metodikasi kafedralarining _____ 2018 y qo'shma majlisida muhokama qilinip, №___ bayonnoma bilan himoyaga ruxsat etildi.

NUKUS-2018 y

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
1 BOB. O`RGANISH MATERIALLARI VA METODLARI.....	9
1.1 . Pedagogik texnologiyalarining qisqacha tadqiqot tarixi.....	9
1.2. Mustaqil ishlarni tashkil etish.....	13
II.BOB.BIOLOGIYA FANI VA MUSTAQIL ISHLARNING TURLARI...	31
2.1. Sinfda va dars o`qitish jarayonida qo`llaniladigan mustaqil ishlar	35
2.2. Laboratoriya va amaliy ishlarni bajarishda foydalaniladigan mustaqil ishlar	35
2.3.Darsdan va sinfdan tashqari ishlarni bajarishda mustaqil ishlardan foydalanish.....	37
III.BOB. BIOLOGIYA FANIDAN MUSTAQIL ISHLARNI BAJARISH NATIJALARI.....	38
3.1. Ilgor texnologiyalar va uqitish usullari.....	
3.2. O`quvchilarning o`quv faolyatini tashkil etishda mustaqil ishlarning roli.....	
3.2.1. Darsda bajariladigan mustaqil ishlar.....	60
3.2.2. Uyda bajariladigan mustaqil ishlar.....	67
XULOSA	53
ADABIYOTLAR RUYXATI	54
HAYOT FAOLIYATI XAVFSIZLIGI.....	55

K I R I Sh

Mustaqil Respublikamiz o'zining rivojlanish yo'lidagi birinchi baland ma'naviyatimizni tiklash milliy ta'lim tarbiya sistemasini etishtirishda ularni zamon talabiga mos jahon standarti darajasiga chiqarishda katta ahamiyat berib kelmoqda. Ta'lim haqida qonun va «kadrlar tayyorlashning milliy dasturi» bo'yicha Oliy o'quv yurtlari oldiga yuqori malakali mutaxassislar bakalavr va magistrlar tayyorlashdek murakkab va ma'suliyatli vazifalar qo'yilgan.

Respublikamiz Prezidenti Sh. Mirziyoevning "Oliy talim tizimini yanada rivojlantirish chora- tadbirlari to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori" va "O'rta maxsus, kasb-hunar talimi muassasalari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" kabi me'yoriy hujjatlarda yoshlarga bilim va tarbiya berishda, ularni etuk mutaxassislar qilib shakllantirishda milliy-madaniy merosga tayanish izchilligi o'z aksini topgan.

Shunga muvofiq ta'lim muassasalarida o'qitiladigan barcha o'quv fanlarini ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalari bilan ta'minlashni ko'zda tutadi. Shu sababli barcha o'quv fanlari kabi biologiyani o'qitishda ham pedagogik texnologiyalardan foydalanish zamon talabi sanaladi.

Bugungi kuni ta'lim tizimida qo'llanilayotgan an'anaviy ta'limning mazmuni o'zgaradi va yangi ta'lim-tarbiya jarayoni tashkil etildi. Bu jarayon pedagogik munosabatlarning demokratiyalashtirishga o'quvchilarning bilish faoliyatining ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini oshirishga, o'quv materialini didaktik jihatdan takomillashtirishga, hamda ishlashga va xalq pedagogikasi maydonlaridan foydalanishga harakatlangan.

Biologiyani o'qitishda pedagogik texnologiyalardan foydalanish, o'quvchilarning ongiga milliy istiqlol g'oyalarini singdirish, vatanga sadoqat, umuminsoniy qadriyatlariga hurmat ruhida tarbiyalash imkonini beradi.

Ta'lim sohasi bo'yicha davlat siyosatidagi tubdan o'zgarishlar o'qituvchi faoliyatini yangiladi. O'quvchilarda erkin fikrlash, insonparvarlik tuyg'ularini mustahkamladi.

Bizning bitiruv mutuxassislik ishimizda, oldimizga qo'ygan vazifamiz biologiya darsliklari bo'yicha mavzularni o'qitishda yangi pedagogik va axborot texnologiyalarning metodlaridan, uslublaridan va shakllaridan foydalanish orqali biologiya darslarining natijaliligini oshirishga imkon beradigan tematikalik yangi texnologiyalarni tanlash va qo'llash orqali biologik ta'limning samaradorligi bo'lishiga o'z xissasini qo'shgan bo'lib hisoblanadi.

Tabiatshunoslik metodikasi Pedagogikalik ilm sifatida o'quvchilarni ruo'xiy tarbiyalash metodlari va mazmuni bulib xisoblanadi. Tabiatshunoslik metodlari va omillari, tabiatshunoslikni o'qitish usullari, uqitish integratsiyasi, tabiatshunoslik sistemasindagi innovatsiya, o'qitish protsessindagi tarbiyaviy aspektori. Atrof muxitni fanlarini urganish, ekskursiyalarni tashkillashtirish metodlari, kuzatishlar, tajriybalar, amaliy ishlar, jonli tabiat burchagi, maktab tajriyba uchastkalarida, tabiatshunoslik va ekologiya kursini urganish protsessida ekologik tarbiya va ekologik ta'lim, estetikalik-ekologiyalik va tabiatshunoslik faniga ega fan konspektlangan va tarbiya marosimlarini tuzish metodikasi. Uy ishlarini ezish maqsadida psixologiya-pedagogikalik va metodikalik adabietlar analizi. Utkazilgan tajriybalarni aniq yumboq eshishi va urganish tajriybalarini utkazish va tashkillashtirish metodlari.

Tabiatshunoslik darsligida boshlang'ich sinf o'quvchilariga uz beticha sinfdan tashqari ishni ishlatishni boshlamasdan oldin, o'quvchilarning boshlang'ich sinflarda tabiatshunoslik buyicha olgan bilmlarini savol-javob orqali sinab kurish kerak.

Ularning boshlang'ich sinflarda tabiatshunoslik darsligida nimalarni urganganligini uzlaridan surab, eslariga tushirish kerak buladi. Tabiat xakida olgan bilmlarining kaysinisi kizikarli bulganligini uzlariga aytirish, tabiat bilan bog'lik

bulgan amaliy ishlarning kaysilari juda kizikarli bulganligini, surab, bilib uni uzlarincha esiga tushirishni amalga oshirish maqsadga muvofiq keladi.

O`quvchilar ezgi dam olishni tabiat buyicha nimalarni boqladi. Boshlang`ich sinfda berilgan topshiriqlarning urinlanishini, uylarida uz betincha ezib kelish topshiriladi. Endi boshlang`ich sinfda tabiatshunoslik darsligida Kuesh va osmon tanalari-er, Oy va Yulduzlar buyicha yangi bilmlarni egallaydiganligi ayta kelinib, uzbek olimlaridan M.Xorezmiy, Beruni, M.Ulug`bek, Z.Bobur, X.Abdullaev, K.Zakirov kabi olimlarning tabiat ilmiga kushgan xissalari bilan o`quvchilarning tanishadiganini tushintirish kerak.

Tabiatni astronomiya, geografiya, biologiya kabi ilmlar urgatadigan ayta kelib, tabiatshunoslik fani tabiat kubilishlari haqidagi ilm ekanligini keyingi sinflarda geografiya, biologiya fanini urganishda va uz betincha boklash ishini olib borishda asosiy bilmlarning fundamenti ekanligini aytib tushintiriladi. Boshlang`ich sinflarda tabiatshunoslik darsligida Osmon tanalari (Kuesh planetalar, Er, Oy, Yulduzlarni) xavo, suv, tog` jinislari, tuproq va jonli organizmlarni, o`quvchilarning urganiladigan tushintirib, shular buyicha uz betlarincha boklash ishlarini yurgizadigan va unga kerakli narsalarni tayerlash kerak ekanligini tushintiramiz.

Eng dastlab o`quvchilarga jonli va jonsiz tabiatdagi narsalar tana deb nomlanadiganini, tabiatdagi xamma tanalarni kattiqlik, suyuqlik va gaz tarizli tanalar deb bulinadiganligini, bularning bir-biridan aymasi tushintirish bilan birga, ularning ustidan o`quvchilarning uz betincha boqlash ishini olib borish kerakligini aytib, o`quvchilarning ongiga sindirish kerak buladi. Bundan keyin uz betincha ish olib borishda kandy narsalar kerak ekanligini tushintirishga utamiz.

O`quvchilarga tabiatshunoslik fani buyicha uz betincha ish olib borish uchun, tabiatshunoslik darsiga bag`ishlab shakmoq daftar kuyish kerakligini, shu daftarga tabiat haqidagi xar xil ma`lumotlarni ezib olish, gazeta va jurnallardan tabiat haqidagi ma`lumotlarni, maqola va suurlatlarni kiyib olib epishtirishni topshiramiz.

Daftarlariga jonli va jonsiz tabiatga tegishli bulgan bir necha nomlarning xar kaysisini, uz oldiga ayirib ezshni o`quvchilarning uzlariga yuklash kerak buladi.

Tabiatshunoslik faniga kuygan shakmok daftaringizga ob-xavoning kundalikli sharoytini (xavoning temperaturasini, shamolning bagitiga eki bagdorini, bultlik va sochini) xar kuni tush vaqtida aniqlang va shartli belgilar bilan sinf kundaligiga yana daftaringizga ezib boring deb topshiriq beriladi.

Shartli belgilar tabitshunoslik kitobingizning sakkizinchi betida berilgan soni uzlaringiz edka solib olinglar deb topshiriladi.

Xavoning temperaturasi soya erga kuyilgan termometr orqali aniqlashga, o`quvchilarning uzlari yashaydigan erning ob-xavosini boklash uchun navbatchi boklavchi kuyiladi. Ular xafta davomida ob-xavoning sharoytini boklab, sinfnig ob-xavosini boklash kundaligiga belgi kuyib boradi. Navbatchilar xar xafta sayin uzgarib utiradi. Buni tabiatshunoslik muallimi boklab boradi.

Xar oyning oxirida xavoning urtacha temperaturasi, kueshli, bulutli va sochinli kunlarini xisoblab chiqib buni sinfnig kundalik daftariga ezib borish topshiriladi.

Bundan tashqari mevalarning pisish muddatini boklash, daraqlarning yaprog`ining tushishini, kuzda kaysi kushlar uchib kelib otir, kaysi kushlar ketib otir, kaysi kushlar shu erda yil davomida tirchilik etadi. Shularning xar birini uzlarining daftariga ezib borish topshiriladi. Bularning urinlanishi muallimi tarafidan nazorat qilinib, ularga baxo quyilib boriladi.

O`qitishning yakuniy bosqichida – darsda o`qiyotganlarning bilimini tekshirish va baholash. Darsning bu qisminig asosiy maqsadi — o`quv materiallarini o`quvchilar qay darajada o`zlashtirayotganligini aniqlash,. Bu orqali o`qituvchi quyidagi imkomiyatlarga ega bo`ladi, darsni tashkil qilishning qanchalik foydaliligi, unig tarkibi, o`tkazishning metodikasi. Agar o`qituvchi o`quvchilarning asosiy qismida darsning yaxshi o`zlashtirilmayotganligini aniqlasa, u darsni tashkil qilishda va metodikasida u yoki bu o`zgartirishlar kiritishga harakat qiladi, darsni takomillashtiradi. Agar bilim berishda

individualbo`shliqlar yuzaga keladigan bo`lsa, o`qituvchi o`quvchi bilan alohida ishlashni tashkil qiladi.

Mavzu dolzarbligi: O`quvchilarning bilimlarini tekshirish va baholash o`qitishningyakunlovchi bosqichi bo`lib hsioblanadi. Darsning ushbu tarkibiyiy bo`lagining asosiy maqsadi o`quvchilarning o`quv materiallarini o`zlashtirishining sifatini aniqlashdan iborat bo`ladi. O`qituvchi bunda darsni tashkillashtirish, uning mazmuni, o`qituv metodikasiniing qanchalik effektiv bo`lganligiga ishonch foyda bo`ladi. Agar o`qituvchi o`quvchilarning ko`pchilik bo`limiga «qonaatladirarsiz» darajada ekanligni aniqlagan bo`lsa, unda o` o`qituv ishini tashkillashtirishga va metodikasiga, darsning etilishtirishgaa u yoki bu o`zgarttirishlar kiritshga intiladi. Agar, bilimlaridagi kamchiliklar individual xarakterga ega bo`lsa, o`naqa xolatda o`qituvchi ayirim o`quvchilar bilan alohida ishlashi kerak.

Tadqiqot maqsadi: ushbu malakaviy ish asosida maqsadli sinfdan tashqari dars tashkil etish va unda yangi ta`lim texnologiyalaridan foydalanish. Shuning uchun ham ushbu bituruv malakaviy ishimizda o`simliklar olami ajoyibotlari haqida qisqa va lo`nda fikr yuritishga harakat qildik. Uning mo`jizalari to`g`risida bilim berishga intildik. Maqsadimiz oddiy: o`simliklar olamini asrash,avaylash uni ko`paytirish.

Tadqiqot vazifasi:

- Oquvchilarning tabiatga bo`lgan mehr-muhabbatini, qiziqishini yanada orttirish.
- Sinfdan tashqari darslarning bilish jarayonidagi o`rnini aniqlash.
- O`quvchilarni o`simliklar olami ajoyibotlari bilan yaqindan tanishtirish
- Zamonaviy axborot-texnologiyalaridan foydalangan holda qiziqarli va samarali dars o`tish.
- Maqsadli sinfdan tashqari ishlarni tashkil etish.
- O`quvchilarning ilmiy dunyoqarashini kengaytirish va kasbga yo`naltirish.

**Tadqiqot ob`ekti:** umumiy o`rta ta`lim maktablari, akademik litsey, kasb-hunar kollejlari o`quvchilari uchun tashkil etiladigan sinfdan tashqari darslar.

Tadqiqot predmeti: sinfdan tashqari darslarning turlari, xususiyatlari, o'quvchilarning bilim darajasini o'rganish tadqiqot predmetini belgilaydi.

Tadqiqot metodlari: kuzatish, suhbat, kichik guruhlarda ishlash, ekskursiya va dala tajribalari, morfologik, fenologik, fiziologik, statistik metodlar.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.

Sinfdan tashqari darslarning bilish jarayonini aktivlashtirishi o'rganildi va tavsiyalar tayyorlandi. Tadqiqot natijalaridan oliy o'quv yurtlarida, kollej va litseylarda, maktablarda biologlar tomonidan o'quv jarayonlarida noan'anaviy dars sifatidada qo'llaniishi mumkin.

Ishning sinovdan o'tishi.

Bitiruv malakaviy ishi Ajiniyoz nomidagi Nukus Davlat Pedagogika institute Tabiatshunoslik va geografiya fakulteti Botanika kaferdasi majlisida muhokamadan o'tdi.

Bitiruv malakaviy ishining tuzilishi va hajmi. Bitiruv malakaviy ishi kirish, 3 bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Ishning hajmi 60 betdan iborat bo'lib, 21manba (7 tasi chet el adabiyoti), jadvallar va rasmlarni hamda №38 umumta'lim maktabining 8-sinfga 2018-yil "Yirtqich qushlar" mavzusidagi bir soatli ish reja konspektini o'z ichiga olgan.

1 BOB. O`RGANISH MATERIALLARI VA METODLARI

Biologiyani o`rganishda va o`qituvchining o`rganilayotgan materialini izlash mazmunli sifatli o`zlashtirish ta`lim texnologiyasiga bog`liq. Shuning uchun pedagogik texnologiya nazariyasidan uning mohiyati, shakllanishi, taraqqiyoti, tarixi, afzalliklari, ta`lim jarayonining istiqbolini ta`minlashdagi o`rni va roli o`rganiladi. Biologiyani o`qitishda pedagogik texnologiyalardan foydalanishda asosiy materiallar J.O.Tolipova 1992., A.T.G`afurov va boshqa 1992., J.K.Yo`ldoshev 1994., G.K.Selevko 1918., A.Yu.Burtseva 2001., Ch.Yu.Kurochkina 1999., T.S.Sodikov , A.e.Abilkasimova 2000., J.O.Tolipova, A.T.G`afurov 2002; M.N.Azizxojaeva 2003; J.O.Tolipova 2004 (1-qism); U.T.Toipov va boshqa 2005; A.T.G`afurov va boshqa 2005 va boshqalarning ilmiy ishlaridan metodik qo`llanmalaridan olindi. Olingan nazariy ma`lumotlar biologiyani o`qitish amaliyotiga tadbiiq etish uchun biologiya fanlaridagi ayrim mavzudagi darslarda foydalanishda va darslarning natijaliligi aniqlandi.

1.1 . Pedagogik texnologiyalarining qisqacha tadqiqot tarixi

I Prezidentimiz I.A.Karimovning «Respublika uchun ilmiy kadrlar tayyorlashni kengaytirish to`g`risida»gi (1990 yil fevral`) nutqida

«Yoshlarni zamonaviy fan-texnikaning umuman ilm-fanning yutuqlaridan bahramand qilmasdan turib, ularga yuqori malakali ixtisos egalari bo`lib etishishiga sharoit tug`dirmay turib, biz respublikamiz xalq xo`jaligini, sanoat ishlab chiqarish sohalarini tubdan o`zgartira olmaymiz...», degan edi.

Ta`lim sohasida o`zgarishlar yuz berdi. O`qituvchi faoliyati yangilandi, o`quvchilarda bilimga qiziquvchilik, vatanni sevish insonparvarlik tuyg`ulari shakllana boshladi. Shu asosda vataniga, xalqiga millatiga fidokor, mustaqil fikrlaydigan, biron bir masalani ongli ravishda, ma`suliyat bilan hal qiladigan izlanuvchi, yangilikka intiluvchi shaxslarni tarbiyalaydigan yangi ta`lim

texnologiyalari bilan qurollardan kadrlar etishtirila boshladi. Texnologiya tushunchasi texnikaviy taraqqiyot bilan bog`liq holda fanga 1972 yilda kirib keldi va yunoncha ikki so`zdan texnos (technt)-san`at, xunar va logos (logos)- fan, ta`limot so`zlaridan tashkil topib hunar fani ma`nosini anglatadi. Lekin bu ifoda zamonaviy texnologik jarayonni to`liq tasvirlab bera olmasdi.

Texnologik jarayon bu mehnat qurollari bilan mehnat ob`ektlariga bosqichma bosqich ta`sir etish natijasida mahsulot yaratish borasidagi ishining faoliyatidir. Pedagogik texnologiya-bu o`qituvchining o`qitish vositalari yordamida talabalarga, o`quvchilarga muayyan sharoitda ta`sir ko`rsatish va bu faoliyat mahsuli sifatida ulardan oldin belgilangan lichnost` sifatlarini (dargohlarda) intensiv shakllantirish jarayonidir: texnologik yondoshuv ishlab chiqarishdan olingan bo`lib, unda minglab texnologik jarayonlar loyhalashtirilgan uldar ishlab chiqarishda kerakli natijalarga erishishning tarmog`i hisodlanadi. Bu texnologiyalarni qo`llash vaqtida hudud va ularning ijrochisi o`zgarsa ham, kerakli mahsulot chiqaveradi. Ta`lim tarbiya jarayonida ham shunga erishish uchun pedagogik texnologiya ishlab chiqildi.

Jahon pedagogik tafakkurida ta`lim-tarbiyaga bunday yondashuv yangi emas. XVIII –asardayoq «Buyuk didaktikaning muallifi Yan-Amos Kamenskiy ta`lim jarayonini «... Unda har bir usul va narsalar vaqt jihatidan shunday joylashtirilishi kerak ediki», ... butun pedagogik jarayon yaxshi sozlangan soat kabi bexato yurishi kerak», bo`lgan shaklga shaklga solmoqchi bo`lgandi. Buyuk pedagog Kamanskiy etmagan orzularga XXI-asr pedagoglari etib, bu ijtimoiy hodisa pedagogik texnologiya nomini olib, dunyo o`qituvchi va pedagoglariga xizmat qilmoqda.

Bu ish AQSh olimlari R.Slavin, B.Blum, D.Kratvol., N.Granlund, Dj.Kerolla, Dj.Blok, L.Anderson, Izrailli-Sh.Sharon, Rossiyadan V.P.Belpal`go va boshqalar tomonidan amalga oshdi.

Bizning Respublikamizda asosan biologiyani o`qitishda ta`lim texnologiyalaridan foydalanish to`g`risida ishlarni A.T.G`ofurov, J.O.Tolipova,

T.Nazarova, D.Matros, V.Zaitsev. G.K.Selevko, e.S.Polat, Kavtaradze, Ch.Yu.Kurochkina M.e.Shurkova, A.B.Abdikasimova, S.S.Fayzullaev, I.T.Azimov, B.Axmadaliev, e.Bel'skaya va boshqalarning mehnatlarida ko`rish mumkin.

Yangi pedagogik texnologiyalar o`z mohiyatiga ko`ra pedagogika fani va amaliyoti yutuqlarining sintezini, ilgari tajribaning an`anaviy elementlari bilan jamiyat taraqqiyoti, jamiyatni insonparvarlashtirish va demokratiyalashtirish natijalari yig`indisini ifodalaydi. Uning manbalari va tarkibiy elementlari:

1. Ijtimoiy o`zgarishlar va yangi pedagogik tafakkur;
2. Pedagogika, psixika, ijtimoiy fanlar;
3. Ilg`or pedagogik tajriba;
4. Vatanimizning va xorijiy mamlakatlarning ta`lim-tarbiya sohalaridagi ilgarigi va zamonaviy tajribalari;

5. Turli xalqlarning tarixiy rivojlanishi davomida shakllangan va ular tomonidan amal qilib kelinayotgan xalq pedagogikasi (Etnopedagogikasi, qaraqalpoq etnopedagogikasi) an`analari.

Maktablarning hozirgi nazariyasida va amaliyotida o`quv-tarbiya jarayonini amalga oshirish va olib borishning ko`plab variantlari bor. Ko`p texnologiyalar o`z maqsadlari, mazmuni, qo`llanadigan metodlari va vositalari bo`yicha o`xshash, ularni shu umumiy belgilariga ko`ra tasnif qilish mumkin.

1. Qo`llanish darajasiga ko`ra;
2. Falsafiy asosi bo`yicha;
3. Asosiy rivojlantiruvchi omili bo`yicha;
4. O`zlashtirish kontseptsiyasi bo`yicha;
5. Shaxsiy belgi-sifatlariga ko`ra yo`nalganligi bo`yicha;
6. Mazmun xususiyatlari bo`yicha;
7. Boshqaruv turi bo`yicha;
8. Qo`llaniladigan metodlari bo`yicha
9. Bolaga yondashuv bo`yicha;

10. Ta`lim oluvchilar toifalari bo`yicha.

Yuqoridagi tasnif asosida misol sifatida hozirgi an`anaviy maktab ta`limini quyidagi tasniflash mumkin.

1.1. Umumpedagogik

1.1 Majburlash pedagogikasi (Umumiy majburiy ta`lim);

3.1. Sotsiogen, ya`ni asosiy e`tibor jamiyatning faol a`zolari bo`lgan barkamol insonlarni, shaxsni tarbiyalashga qaratilgan holda;

4.1. Assotsiativ reflektor bo`lib suggestiya (namuna, misol, o`rnak, ibrat, ko`rsatishlar) ga tayangan holda;

5.1. Axborotni, ya`ni bilim, malaka, ko`nikmalarni shakllantirish va mustahkamlashga yo`naltirilgan;

6.1. Dunyoviy texnologik, umumta`lim mazmunida bo`lib, ta`lim tarbiya jarayonini tashkil qilish va olib borishda didaktikaga markaziy o`rin beriladi;

7.1. An`anaviy-mumtoz (klassik) bo`lib unga ta`limning texnik vositalari qo`shilgan;

8.1. Tushuntirish illyustratsiyalash;

9.1. Avtoritar;

10.1. Ommaviy, individual.

Shu bilan bir vaqtda jamiyatning rivojlanishi alohida mamlakatlarda va umuman jahonda insonparvar falsafiy asosdagi yangi pedogogik va axborot texnologiyalari yaratildi. Bular ham yuqorida aytilgan belgilarga ko`ra tasnif qilinadi. Didaktik o`yin, muomoli ta`lim modeli ta`lim hamkorliklarida o`qitish an`anaviy ta`lim, dasturlashtirilgan ta`lim guruhli texnologiyalar va axborot texnologiyalari.

Pedagogik texnologiya bir qancha asoslarga ega: Ijtimoiy, falsafiy, metodologik, didaktik, pedagogik, psixologik, fiziologik, gigienik, mafkuraviy, huquqiy me`yoriy iqtisodiy, tarixiy, nazariy, amaliy va boshqada asoslar. Masalan: pedagogik asosi zamonaviy pedagogika fanining ilmiy xulosalaridan kelib chiqadi. Bunda pedagogik texnologiyaning umumiy tarkibi tuzilishi, mazmuni shakli

usullari, vositalari pedagogik jarayonning tashkil qilinishi, olib borilishi, diagnostikasi, monitoringi, o'quv-mavzu rejalarining ilmiy jihatdan to'g'ri bo'lishi ta'minlanadi.

1.2. Mustaqil ishlarni tashkil etish

Mustaqil ishni tashkil etish va unga rahbarlik qilish bu har bir o'qituvchi uchun ma'suliyatli va murakkab ishdir. O'quvchining faolligini hamda mustaqilligini tarbiyalashga butun ta'lim-tarbiya jarayonining zarur tarkibiy qismi sifatida qarash lozim. Bu masala har bir o'qituvchi oldida turgan birinchi darajadagi muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Ta'lim jarayonida o'quvchining mustaqil bilim olish va anglash faoliyatini shakllantirishda birinchidan, o'quvchilarning bilim olish va anglash faoliyatida mustaqillikni rivojlantirish uchun ularni mustaqil bilim olishga o'rgatish, ikkinchidan olgan bilimlarini o'quv va amaliyotda mustaqil qo'llay olishga o'rgatish kerak.

Mustaqil ish o'quvchining chuqur va mustahkam bilim olishiga, mantiqiy fikr yuritishiga, ijodiy izlanishga, o'z-o'zini baholashga undaydigan vosita bo'lib xizmat qiladi.

Ta'lim jarayonida o'quvchining mustaqillik va faollik xususiyatlarini tadqiq etishning bir qancha yo'nalishlari mavjud. Dastlabki yo'nalishlar qadimdan bor. Qadimgi dunyo faylasuflari Suqrot, Platon, Arastu ushbu yo'nalish namoyandalari bo'lgan deb aytish mumkin. Ular bolaning ixtiyoriy mustaqil ilm o'rganishining ahamiyatini chuqur va har tomonlama keng asoslab berganlar. Inson tafakkurining rivoji uning mustaqil faoliyati jarayonida muvaffaqiyatli kechishi mumkin, shaxsning kamol topishi va qobiliyatining rivoji esa o'z-o'zini anglash yo'li bilandir.(Suqrot)

O'quvchining bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lish borasidagi barcha sa'y-harakati uning faolligini ko'rsatsa, o'qituvchi rahbarligi ostida yoki

berilgan topshiriq va vazifalarni bajarish mobaynidagi mehnatini mustaqil ish deb e'tirof etish lozim. Mustaqil ishlar turi, shakl va mazmuniga ko'ra xilma-xil bo'ladi.

Mustaqil ishlarni quyidagicha klassifikatsiya qilish mumkin:

1. Didaktik maqsadiga va mohiyatiga ko'ra:

yangi bilimlarni egallashga qaratilgan mustaqil ishlar (darslik bilan ishlash, tarqatma va ko'rgazmali materiallar bilan ishlash, laboratoriya ishlari kabilar);

o'zlashtirilgan bilimlarni takrorlash, mustahkamlash va amalda qo'llash yo'li bilan takomillashtirish (darslik va boshqa o'quv qo'llanmalari bilan ishlash, amaliy ishlar kabilar); o'zlashtirilgan bilimlarni nazorat qilish, tekshirish va baholash bilan bog'liq mustaqil ishlar (yozma ishlar, test savollari, biologik diktant kabilar).

2. O'quvchilarning bilish faoliyatining xarakteriga ko'ra:

- namuna bo'yicha bajariladigan mustaqil ishlar;
- izlanuvchan xarakteridagi mustaqil ishlar;
- tadqiqot, tajriba xarakteridagi mustaqil ishlar.

3. O'quvchilar ishlarini tashkil qilish shakliga ko'ra:

- frontal (yalpi) otkaziladigan mustaqil ishlar;
- guruhlar bilan o'tkaziladigan mustaqil ishlar;
- individual (yakka) tarzda o'tkaziladigan mustaqil ishlar.

4. Bilim manbai va o'qitish vositalariga ko'ra:

- darslik va boshqa o'quv qo'llanmalar bilan;
- o'rganiladigan mavzu bo'yicha reja va ma'ruza konspekti tuzish;
- multimedia dasturlari va elektron darsliklar yordamida o'rganish;
- tarqatma materiallar bilan;
- amaliy mashg'ulotlarni bajarish bilan;
- biologik diktantlar yozish bilan;
- sxema va jadvallar yordamida;
- ma'ruzalar va referatlar tayyorlash bilan;

- mustaqil test topshiriqlarini yechish;
- mavzuni o'rganishda Internet materiallaridan foydalanish bilan;
- boshqotirmalar bilan ishlash.

5. Qay sharoit va qanday vaziyatlarda bajarilishiga qarab:

- darsda bajariladigan mustaqil ish;
- darsdan tashqari (maktabda va uyda) bajariladigan mustaqil ishlar.

Botanikani o'qitishda o'quvchilarning darslik ustida mustaqil ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish uchun quyidagi talablar qo'yiladi: darslikdagi mavzu matnini o'rganish va matndagi asosiy g'oyani ajratish, yangi tushuncha va atamalarni o'zlashtirish va atamalar lug'ati daftariga ularning ta'rifi va izohini yozib borish, darslikda berilgan savollarga javob topish, javoblarini tabiiy ob'yektlar va ko'rgazmalardan foydalanib asoslash, matndagi o'quv materiali mazmunidan foydalanib berilgan mavzu yuzasidan jadvallar va sxemalar tuzish va ularni to'ldirish, krossvord va test savollariga javob topish.

O'quvchi darslikdagi mavzu matnini o'rganib chiqib matndagi asosiy g'oyani ajrata olishi kerak. Matndagi asosiy g'oyani ajratishda o'quvchi o'qituvchining dars davomida bergan ma'lumotlariga asoslanadi va matnni chuqur o'zlashtigandagina bunga erisha oladi. O'quvchilar matndagi asosiy g'oyani aniqlab olgach botanika fani daftarlariga yozib qo'yadilar.

O'quvchilarning mustaqil ishlaridan biri o'tilgan mavzu bo'yicha yangi tushuncha va atamarni o'rganib borishlariga qaratiladi. Har bir yangi atama va tushunchaning ta'rifi va izohi o'quvchining botanika fani daftarida maxsus ajratilgan betlarga yozib boriladi.

Matndagi o'quv materiali mazmunidan foydalanib berilgan mavzu yuzasidan jadvallar va sxemalar tuzish va ularni to'ldirish oquvchini mustaqil ishlash faolligini oshiradi.

Sinfdan tashqari mashg'ulotlar

Botanikadan sinfdan tashkari o'tkaziladigan individual ishlarning mazmuni juda turli-tuman bo'lishi bilan ajralib turadi. Biroq, bilim va tarbiya berishi jihatidan olganda bularning eng muhimlari quyidagilardir:

1) o'simliklar ustida olib boriladigan fenologik kuzatishlar;

2) o'usimlik organizmlarining hayotiy funksiyalarini o'rganish yuzasidan biologiya kabineti, tirik tabiat burchagi, uy sharoitlarida o'tkaziladigan tajriba va kuzatishlar;

3) tabiatda kuzatishlar olib borish yo'li bilan mahalliy fitosenozlarga mansub yovvoyi o'simliklarning botanik tarkibi va biologiyasini o'rganish;

4) ekinlar, manzarali gul o'simliklari va daraxt ko'chatlari bilan maktab uchastkasida olib boriladigan, turli agrotexnika usullarini tatbiq etish yo'li bilan shu o'simliklarning o'sishi va rivojlanishini o'zgartirish mumkinligini ko'rsatib beradigan amaliy tajriba ishi;

5) sinfdan tashkari o'kish;

6) bajarilgan ish natijalarini kursatish: dokladlar, referatlar tayyorlash; Amaliy tajriba ishi yakunlari yuzasidan ko'rgazmali qurollar tayyorlash.

Biologiya fanini bilishning asosiy metodlari tajribalar va kuzatishlardir, shunga ko'ra o'simliklardan keng foydalanish yo'li bilangina ularning biologiyasini chinakamiga o'rganish mumkin. Bu hildagi ishga o'quvchilarning vaqtida tayyorlanishi uni muvaffakiyat bilan o'tkazishning muhim shartidir. Bunday ishni botanika va qishloq xo'jaligi mehnati darslarida ham, botonikadan tajribalar qo'yish va kuzatishlar olib borishning oddiy metodikasi bilan o'quvchilarni tanishtiradigan sinfdan tashqari mashg'ulotlar(guruh, to'garak mashg'ulotlari)da ham olib borsa bo'ladi. Botanika ekskursiyalaridan ham shu maqsadda anchagina foydalanish mumkin.

«Gulli o'simliklar bilan umumiy tanishish» mavzusi yuzasidan o'tkaziladigan mustaqil kuzatishlar .

O'quvchilarni tabiatda mustaqil kuzatishlar olib borishga tayyorlashda, ayniqsa sinfdan tashqari ishni tashkil etishning dastlabki davrida, botanika ekskursiyalari katta rol o'ynaydi .

«Gulli o'simliklar bilan umumiy tanishish» mavzusi bo'yicha birinchi o'quv ekskursiyasi vaqtida va sinfdan tashqari mashg'ulotlar sifatida tabiatga, mahalliy ilmiy muassasalar va uquv muassasalarining kolleksiya hamda tajriba uchastkalariga uyushtiriladigan keyingi ekskursiyalarda o'qituvchi o'quvchilarni har xil (daraxtlar, butalar, o'tlar) shaklda bo'lgan madaniy va yovvoyi o'simliklarni bir-biridan ajratishga, bularning rivojlanishida hammadan yorqin ifodalanadigan fenologik fazalarni to'g'ri qayd qilib borishga o'rgatmog'i lozim.

Botanikani o'rganishga endigina kirishgan V sinf o'quvchilari o'simliklar hayotidagi o'zgarishlarning yil fasllariga qarab har yili takrorlanib turadigan xillarini (barglar rangining kuzga borib o'zgarib qolishi, meva va urug'larning yetilishi, barglarning to'kilishini) hammadan avval qayd qilishlari mumkin.

Shu vaqtda «Kuzda o'simliklar hayoti» mavzusi yuzasidan o'tkaziladigan ekskursiyaning maqsadi o'quvchilarning tasodifiy, yuzaki kuzatishlarini aniqlab olish, o'simliklar hayotidagi kuzgi o'zgarishlarning biologik ma'nosini tushinib yetishda ularga yordam berishdan iborat bo'lmog'i kerak.

V sinf o'quvchilari kuzgi ekskursiya ishi vaqtidayok o'simliklarni yig'ish va gerbary yasash bilan bir qatorda o'simliklarni quyidagi rejaga muvofik tasvirlab berishlari ham mumkin:

1. O'simlikning nomi (avlodning nomi bilan atalganda).
2. Tabiatda yoki madaniy holda o'sadigan joyi (dala, botqoqlik , suv havzasi, o'rmon, o'tlok, mevazor, bog' va hakazo).
3. Tashqi tuzilish xususiyatlariga qaraganda o'simlikning qaysi guruhga kirishi (daraxt, buta, o't o'simlik).
4. Gullarning tuzilishi va ularning novdada joylashuvi (yakka-yakka gullar yoki to'pgullar).
5. Mevaning tuzilishi (mevaning nomi ko'rsatiladi).

6. O'simlikning odam hayoti va tabiatdagi ahamiyati.

Mana shunday ishlar bajariladigan bo'lgani uchun o'quvchilarni o'simliklar yig'ish va ulardan gerbariyalar yasash qoidalari bilan, kolleksiyalar tuzish yo'llari, sersuv mevalar, qo'ziqorin meva tanalarining fiksasiyalangan preparatlarini tayyorlash usullari bilan 2-3%li formalin eritmasida tekshirish zarur.

Ekskursiya ishi yakunlarini chiqarishda o'quvchilar diqqatini boshqa yil fasli kelishi bilan o'simliklarni kuzatib qolishga jalb qilish va istaganlarining hammasiga tabiatda mustaqil kuzatuvlar o'tkazib turishni taklif etishi kerak.

Topshiriq.

Mahalliy o'lka o'simliklaridagi kuzgi o'zgarishlarning hususiyati.

1. Daraxt va butalar bargining rangi kuzda o'zgarishini tasvirlab bering. Kuzda barglar rangi qaysi muddatlarda o'zgarib qoladi?

2. Turli daraxt va buta o'simliklari qachon bargini to'kishini kuzating (to'kila boshlagan va to'kilib bo'lgan vaqtini ko'rsating). Bitta turga mansub bo'lgan, ammo har xil sharoitlarda (o'rmonda, o'rmon chetida, baland ochiq joylarda, pastliklarda) o'sadigan daraxtlarda barg to'kilish muddati bir xil bo'ladimi?

3. Siz yashaydigan joyda doim yashil daraxt va butalarning qaysi turlari o'sishini aniklang.

4. O'sha joyda kaysi o'simliklar kech kuzgacha gullab turadi?

Kuzatish uchun mahalliy sharoitlarda hammadan ko'p tarqalgan daraxt va buta o'simliklarni tanlab olishni taklif etish kerak.

5. Kuzda har xil rangga kiradigan daraxt va butalarning barglarini yig'ing va quriting.

Kuzatishlarni o'tkazishda qatnashadigan o'quvchilarga quyidagi savollarga javob topish uchun tuzuvchi D. I. Traytakning «Botonikadan o'qish kitobi» ni tavsiya qilsa bo'ladi:

1. Kuzda barglar rangining o'zgarib qolish nimalarga bog'liq?

2. Nega barg to'kiladi?

3. Bu hodisaning o'simlik uchun qanday ahamiyati bor? Va hakoza

Bu ish yakunlaridan to'g'arak mshg'ulotlarida foydalanish mumkin.

O'z tasnifi va ahamiyatiga ko'ra botanikani o'qitishda qo'llaniladigan ko'rgazmali vositalar asosiy va yordamchi xillarga ajratiladi.

Asosiy guruhga-tabiiy, tasviriy, og'zaki vositalar; yordamchilariga- o'qitishning texnik vositalari va laboratoriya asbob-uskunalar kiradi.

Tabiiy ko'rgazmali vositalar o'z navbatida tirik, o'lik va fikserlangan tasviriy ko'rgazmali vosita tekis va hajmli xillarga ajratiladi.

Tabiiy ko'rgazma vositasi maktab tajriba yer maydonidan maxsus tanlangan o'simliklar, xona o'simliklari, quritilgan, fikserlangan ko'rgazma vositalariga gerbariylar, o'simlik kolleksiyalari preparatlar, tarqatma materiallar kiradi. Tirik o'simlikni dars jarayonida namoyish qilish uchun avvaldan tayyorgarlik ko'rish lozim. Ularni tanlashda o'quv dasturi, mahalliy sharoit va tabiatni muhofaza qilish talablari e'tiborga olinishi kerak.

Gerbariylar- bu quritilgan va to'g'irlangan, qattiq qog'ozga mahkamlangan yaxlit o'simlik yoki uning muayyan organidir. Botanikani o'qitishda gerbariylardan tarqatma material sifatida foydalaniladi. Gerbariylar mazmuni va mohiyatiga ko'ra: morfologik, sistematik yoki ekologik bo'lishi mumkin. O'qituvchi darsda o'rganiladigan mavzu mazmunidagi tushunchalarning turiga qarab muayyan gerbariydan foydalanishi mumkin.

Gerbariy, kolleksiyalarini ko'rsatayotganda shuni yodda tutish kerakki, ular tirik organizmlar to'g'risida to'liq tasavvur hosil qilmaydi. Shuni e'tiborga olib ular boshqa ko'rgazma vositalar bilan birgalikda namoyish etilishi lozim. Huddi shunday holatni fikserlangan ho'l preparatlarga nisbatan ham aytish mumkin. Chunki ular uzoq vaqt davomida o'zlarini ranglarini yo'qotgan bo'ladilar.

Ho'l preparatlar- bu o'simlikning yoki uning organlarining maxsus eritma yordamida konservalanishidir. Ular shisha slindrik va plastmassa idishlarda (formalin va spirt eritmalarida) bo'ladi.

Ho'l preparatlar mazmuniga ko'ra uch guruhga bo'linadi:

- Morfologik preparatlar- o'simlikning tashqi tuzilishi va organlari aks ettirilgan bo'ladi.

- Anatomik preparatlar- organizm yoki bazi organlarning ichki tuzilishi aks etgan bo'ladi.

- Embriologik preparatlarda organizmlarning individual rivojlanishi o'z aksini topgan bo'ladi.

Ho'l preparatlardan tarqatma material sifatida foydalanish mumkin.

Tabiiy ko'rgazmali vositalarning biri mikropreparatlar hisoblanadi. Ular kichik organizmlarning hujayraviy tuzilishini o'zida ifoda qiladi.

Mikropreparatlar tayyorlanishi va doimiyligiga ko'ra ikki guruhga: vaqtinchalik va doimiy mikropreparatlarga bolinadi.

Vaqtinchalik mikropreparatlar o'qituvchi yoki o'quvchilar tomonidan bir dars mobaynida tayyorlanadi. Shuni qayd etish kerakki, vaqtinchalik mikropreparatlarni tayyorlash ko'nikmasini hamma o'quvchilar egallashlari kerak.

Doimiy mikropreparatlar maxsus muassasalarda tayyorlanib, undan ko'p marta foydalanish imkoniyati mavjud. Vaqtinchalik va doimiy mikropreparatlar o'quvchilar tomonidan tirik organizmlarning hujayraviy tuzilishini o'rganishdamuhim ahamiyatga ega.

Kolleksiyalar- o'simlik yoki uning organlarining to'plamidan iborat. Kolleksiyalardan o'simlik organlarini o'rganishda foydalanish mumkin.

Darsdan tashqari ishlarning xususiyatlari. Darsdan tashqari ishlar o'qituvshining individual yoki guruh topshiriqlari asosida darsdan keyin kursni o'rganish bilan bog'liq bo'lgan majburiy tarzda amaliy ishlarni bajarishni tashkil etishdir. Biologiya fani bo'yicha darsdan tashqari ishlar : biologiya xonasida,tirik tabiat burchagida,o'quv tajriba maydonida bajariladi.

O'quvchilarning darsdan tashqari ishlarining zarurligi sababi shundaki, o'simliklar va hayvonlar ustida olib boriladigan ko'pgina uzoq muddatli kuzatishlar o'quv jadvaliga sig'maydi. Ayrim hollarda turli asboblardan va mikroskop yetishmasligi, sinfda turli topshiriqlarni bajarishga to'sqinlik qiladi. Biologiya

kursini o'rganish davomida har bir o'quvchi mikroskop bilan ishlash malakasiga ega bo'lishi kerak. Shuning uchun o'qituvchi navbat bilan 3 - 5 o'quvchining dars oldidan yoki darsdan so'ng mikroskop bilan ishlashini tashkil etishi kerak. O'quvchilar 3-5 tadan guruhlariga bo'linib mayda hayvonlar ustida o'qituvchi topshirig'i bo'yicha keyinchalik darslarda foydalaniladigan uzoq muddatli biologik kuzatish va tajribalar olib boradilar. Har bir o'quvchi yil davomida bir yoki ikkita darsdan tashqari ish bajaradi, ularning bajarilishiga o'qituvchi baho qo'yadi. Darsdan tashqari ishlar mazmuniga ko'ra uyga beriladigan tajribalarga yaqin hisoblanadi. Lekin, farqi shundaki, uy ishlari ancha oddiyroq bo'lib, sinf o'quvchilari uchun bir vaqtda beriladi. Darsdan tashqari ishlarning uy ishlaridan farqi ba'zan dastlabki harakterda bo'ladi, ya'ni sinfda o'rganishdan bir necha kun, hafta va hatto bir necha oy ilgari beriladi. Masalan botanikadan:

- suv o'simliklari bilan tajribalar-2 oy,
- bargda kraxmal izlari hosil bolishi-2oy,
- poya bo'ylab suvning ko'tarilishi-2-3kun ilgari berilishi mumkin.

Hayvonlar ustida olib boriladigan ishlar uzoq muddatli bo'ladi. Odam va uning salomatligi kursidan morfologik, gistologik va tibbiyot xarakteridagi ishlar ma'lum mavzular o'rganilgandan so'ng bilimni mustaxkamlash uchun o'tkaziladi. Ko'pgina fiziologik tajribalar, shartli reflex hosil qilish, avitaminoz va boshqalar oldindan bajariladi. Ularning natijalarini darsda ko'rsatish imkoni bo'ladi. Darsdan tashqari vaqtda o'quvchilar o'tkazayotgan barcha tajribalarning borishi haqida xabardor bo'lgan o'qituvchi darsda tajribaning borishi, turli bosqichlardagi o'zgarishlarni namoyish qilish, o'tkazilayotgan tajribalar haqida o'quvchilar axborotini yangi mavzular bayoniga kiritish imkoniga ega bo'ladi.

Maktabda va tirik tabiat burchagida darsdan tashqari ishlar. Bunday ishlar ko'pincha kech kuzda, qishda va erta bahorda bajariladi. Asosan ular botanikani o'qitishda qo'llaniladi.

Botanikadan darsdan tashqari ishlarni dasturning barcha mavzusi bo'yicha berish mumkin. Masalan, "Urug'" mavzusi bo'yicha darsdan tashqari o'quvchilar

urug'ning bo'rtishini kuzatadilar,uning unuvchanlik foizini aniqlaydilar. Gulli o'simliklarning biologik xususiyatlarini aniqlaydilar.

Umumiy biologiyadan tirik burchakda o'quvchilarga botanika obyektlari bilan ishlash uchun topshiriq berish mumkin. O'quvchilar tirik burchakda har xil o'simliklarga turli ekologik omillarning ta'sirini o'rganish bo'yicha tajriba o'tkazishi mumkin. Masalan, o'simlikning o'sishiga quyosh nuri va sun'iy yorug'likning ta'sirini yoki niholning o'sishi va rivojlanishiga quyosh nuri va haroratning ta'sirini o'rganish bo'yicha tajriba olib boradi.

Tabiatdagi darsdan tashqari ishlar. Tabiatdagi darsdan tashqari ishlarda asosan morfologiya,ekologiya va sistematikaga doir hodisalarni aniqlashga va gerbariy hamda kolleksiyalar tayyorlashga yordam beradigan kuzatishlar uchun topshiriqlar beriladi. Ular asosan yozda bajariladi,shuning uchun ko'pincha "yozgi topshiriqlar" deb ataladi. Yoz davomida Vsinf o'quvchilariga poya, ildiz va bargalri har xil shakldagi o'simliklarni yig'ish; VIIsinf o'quvchilariga madaniy va yovvoyi o'simliklarni yig'ish va gerbariy tayyorlash.

O'qituvchi ixtiyorida yozda chet ellarga ota-onalari bilan sayohatga boruvchi o'quvchilar yordamida botanika xonasini qiziqarli obektlar bilan boyitish imkoniyati bor. O'qituvchi o'quvchilarning qayerga borishini oldindan bilib olib,cabinet uchun kerakli obyekt olib kelishi to'g'risida topshiriq beradi. Albatta,bunday topshiriqlar tabiat muhofazasini hisobga olgan holda beriladi.

Ekskursiya lotincha "Exsiso","sayr etish" so'zlaridan olingan bo'lib, korxona yoki tabiatning diqqatga sazovor joylariga kollektiv ravishda uyushtirilgan sayr ma'nosini bildiradi. Maktablarda tashkil etiladigan ekskursiyalar esa sinf yoki o'quvchilar jamoasi bilan olib boriladigan ta'lim-tarbiyaning bir shaklidir. O'rganilayotgan buyum va hodisalarni joyiga borib,tabiiy holda yoki sun'iy maxsus sharoitda bevosita idrok etishga –ekskursiya deyiladi. Ekskursiyalar bahorda va kuzda tashkil etiladi.

Ular maktab dasturida ko'rsatilgan va o'quvchilar uchun majburiydir.Tirik tabiat obektlari va hodisalarni bevosita barcha,tabiiy sharoitda o'rganish

imkoniyatini beradi. O'quvchilar o'rganilayotgan o'simlikni ularning yashash muhitiga moslanishlarini yaqqol ko'radilar. O'quvchilar o'simliklar va hayvonlarni tabiiy muhitda o'simliklarni tuproqqa, hayvonlarni esa, o'simliklarga bog'liq holda ko'radilar va o'quvchilarning tabiatni o'rganishga bo'lgan qiziqishlarni kuchaytiradi. Qishloq xo'jaligi, ishlab chiqarish, tajriba stansiyalari, mevazor, ko'chatzor kabi joylarga uyushtirilgan ekskursiyalar o'quvchilarda ishlab chiqarishning turli soxalariga nisbatan zo'r qiziqish uyg'otadi.

Biologik ekskursiya jarayonida o'quvchilar biologik bilimlarning amalda qanday qo'llayotganligini bilib oladilar. Bunday ekskursiyalar o'quvchilarning kasb tanlashlarida ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Dars bilan uzviy bog'liq holda darsdan tashqari ishlar botanika o'qitishning majburiy shakli bo'lib qoldi, ular darsni davom ettiradi va mustahkamlaydi.

Ekskursiya – botanikani o'qitishning muhim shakli. Biologik ekskursiyalar-sinf yoki muayyan o'quvchilar guruhi bilan o'quv dasturiga muvofiq, o'qituvchi tomonidan maktabdan tashqarida tabiiy muhit yoki sun'iy yaratilgan sharoitda ob'ektlarning yashash muhiti va unga bog'liq holda o'ziga xos xususiyatlarni o'rganish maqsadida o'tkaziladigan o'quv tarbiya jarayonining muhim shakli sanaladi.

Ma'lumki botanika o'quv fani sifatida o'quvchilarga tabiat, o'simliklar olami, ularning tarqalishi, yashash sharoiti va unga moslanishlari xususiyatlari bilan tanishtiradi.

O'qituvchi rahbarligidagi tabiatdagi mavsumiy o'zgarishlarni, kuzatish, o'simliklarning xilma-xilligi, yashash muhitiga moslashishi ular o'rtasidagi biotik aloqa formalarini o'rganish. O'quvchilarda olamni yaxlit tasavvur qilish tabiiy jamoalarning tabiiy qismlari o'rtasidagi aloqadorlik haqidagi bilimlarini shakllantirish, tabiiy muhitda tirik organizmlarning yashash sharoiti bilan tanishish maqsadida ekskursiyalar tashkil etiladi.

Ekskursiyaning turlari. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida ekskursiyalar davomiyligga ko'ra, bir soatlik, bir kunlik va ko'p kunlik bo'lishi mumkin.

Bir soatga mo'ljallangan ekskursiya – maktab hovlisida yoki o'quv tajriba yer maydonchasida o'tkaziladi.

Bir kunga mo'ljallangan ekskursiya - tabiatga, ishlab chiqarish korxonalariga, fermer xo'jaliklariga, hayvonot yoki botanika bog'iga, baliqchilik xo'jaligiga yoki parrandachilik xo'jaligiga uyishtiriladigan ekskursiya rejasini maktab ilmiy bo'lim mudiri tomonidan tasdiqlanadi.

Ko'p kunlik ekskursiya – o'quv yilining oxirida kompleks ekskursiya deb, bunga tarix, geografiya, til adabiyot, jismoniy tarbiya yoki harbiy ta'lim fani o'quvchilari bilan birgalikda o'tkaziladi. Ko'p kunlik ekskursiya – reja pedagogik kengashda tasdiqlanadi.

Ekskursiya botanikani o'qitishning muhim shakli bo'lib, u quyidagi didaktik maqsadlarni amalga oshirishga xizmat qiladi:

- Tirik organizmlarning tuzilishi va organlarning funksiyalaridagi o'ziga xos xususiyatlarni yashash muhitiga bog'liq holda o'rganilishi o'quvchilar tomonidan biologik qonuniyatlarni “tabiat-inson- jamiyat” munosabatlari nuqtai – nazaridan o'rganishga imkon yaratadi.

- O'rganilayotgan mavzu mazmuniga bog'liq holda samarali tashkil etilgan ekskursiyalarda o'quvchilarda biologik ob'ektlarning tuzilishi, rivojlanishi va hayotiy faoliyatining o'ziga xos xususiyatlarini chuqurroq anglash, ilmiy dunyoqarashini kengaytirish imkonini beradi.

- Tirik organizmlarning jamoalari, ularning tarkibi, oziq zanjiri, energiya sarfi, biosferadagi modda va energiya almashinuvini tasavvur qilishga zamin tayyorlaydi.

- O'qitishning asosiy shakli bo'lgan darsda o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilgan nazariy bilimlarni orttirish, ularni amaliyotga qo'llash, tabiatga nisbatan ongli munosabat, kuzatish, o'quv va amaliy mehnat ko'nikmalarini tarkib toptirishga xizmat qiladi.

- O'qitish davomida alohida organizmlar va hodisalar haqida ilk bor shakllangan tushunchalar kengaytiriladi, boshqa tushunchalar bilan birikib, murakkab tushunchalarning hosil bo'lishiga olib keladi.

- Tabiat hodisalarini kuzatish olamning moddiyligi, tabiatdagi o'zaro bog'lanish va rivojlanish, tabiiy boyliklarning inson hayoti va xalq xo'jaligida tutgan o'rni, ularni muhofaza qilish tadbirlari bilan tanishtirish orqali Ona Vatanning tabiatga mehr- muhabbat uyg'otish, ekologik, estetik, iqtisodiy va gigienik tarbiya berish imkoniyati vujudga keladi.

Ekskursiya – o'quvchilarning mo'ljal olish, ob'ektlarni tanish, hodisalarni kuzatish, ularni taqqoslash, o'xshashlik va farqli tomonlarini aniqlash, umumlashtirish va xulosa chiqarishga o'rgatadi. Qayd etilgan aqliy operatsiyalar ularda mantiqiy fikr yuritish ko'nikmalarini tarkib toptirish bilan bir qatorda tabiatning ilmiy-tadqiqot metodlarini anglash, zarur hollarda ulardan foydalanishga imkon yaratadi.

Botanikani o'qitish shakllari- dars, darsdan tashqari ishlar va sinfdan tashqari mashg'ulotlar uchun kerakli bo'lgan tarqatma va didaktik materiallar, kolleksiyalar va gerbariyalar tayyorlash orqali o'quvchilarda muayyan ko'nikmalar rivojlantiriladi.

Qishloq xo'jaligi, fermer xo'jaliklari, seleksiya institutlari va stantsiyalarida o'tkazilgan ekskursiyalar madaniy o'simliklarning navlari bilan tanishish, o'quvchilarning dunyoqarashini kengaytirib, kasbga yo'llash imkonini beradi.

Botanikani o'qitishning muhim shakli bo'lgan ekskursiyalar o'quv dasturi bilan belgilangan bo'ladi. Ekskursiyalarning mavzusi o'quvchilar o'rganayotgan o'quv fani mazmuni va tabiatdagi mavsumiy o'zgarishlarga mantiqiy bog'langan holda belgilanadi.

5-sinfda "Botanika" o'quv dasturiga muvofiq, quyidagi ekskursiyalar tashkil etiladi:

Kuzda o'simliklar hayotida ro'y beradigan o'zgarishlar bilan tanishish- 4 dars;

Issiqxonalarda o'stiriladigan o'simliklar bilan tanishish - 32 dars;

6-sinfda "Botanika" o'quv dasturiga muvofiq, quyidagi ekskursiyalar tashkil etiladi:

O'simliklar hayotida ro'y beradigan o'zgarishlar - 17 dars;

O'simliklarning asosiy bo'limlari - 35 dars;

Gulli o'simliklarning xilma-xilligi va ularning o'sish sharoiti bilan tanishish -56 dars;

Ekskursiyalarning tarbiyaviy ahamiyati:

1.O'quvchilarda ongli intizom

2.O'rtoqlik va do'stlik

3.Tashabbuskorlik va xavaskorlik xislatlari tarbiyalanadi.

4.Ekskursiyalar o'qituvchini o'quvchilar bilan yaqinlashtiradi,unga o'z o'quvchilarini yaxshiroq bilib olish(sinf sharoitida namoyon bo'lmagan o'quvchi xususiyatlarini aniqlash)

5.O'quvchilarda tetik va sog'lom tuyg'ulni vujudga keltiradi bu esa o'rganilayotgan o'quv materialining oson va puxta o'zlashtirib olishini ta'minlaydi.

6.Ekskursiyalarda o'quvchilar estetik harakterdagi tuyg'ularni xis qiladilar.

7.Tabiat go'zalligini bevosita xis qilish shu shu tabiatga, vatanga nisbatan muhabbat tuyg'ularini uyg'otadi.

8. Ekskursiya davomida kelgusi dars va darsdan tashqari mashg'ulotlarda foydalanish uchun har xil tabiiy materiallar:o'simlik ularning ayrim qismlari (urug',ildiz,barg,ildizmeva, ildizpoya,tugunak,poya)yig'iladi.

9. O'quvchilar tirik va tabiiy ob'ektlarni yig'ish va rasmiylashtirish (gerbariylashtirish, kolleksiyalash, preparatlashtirish) ko'nikmalarini hosil qilibboradi.

Tirik tabiat burchagida , uchastkada va tabiatda bajariladigan darsdan tashqari ishlar darsda o'rganish uchun qiziqarli material beradi, o'quvchilarda mustaqil ishlash ko'nikmalarini tarbiyalaydi,tabiatga qiziqishini rivojlantiradi.

Bunday ishlarni bajarish uchun o'quvchilar, odatda, topshiriqlarda ko'rsatiladigan o'simlik va hayvonlar to'g'risidagi maxsus adabiyotlarga, ma'lumotlarga, ensklopediyalarga murojat qiladilar. ayni shu darsdan tashqari ishlar yordamida o'quvchilarda bilimni chuqurlashtirish uchun kitoblarga doimiy murojat qilish ehtiyoji tarbiyalanadi.

Dars bilan uzviy bog'liq holda darsdan tashqari ishlar botanikani o'qitishning majburiy shakli bo'lib qoldi, ular darsni davom ettiradi va mustahkamlaydi.

Sinfdan tashqari mashg'ulotlar o'quvchilarning o'qituvchi rahbarligida biologiya o'quv dasturidan olgan mavzularini kengaytirish va to'ldirish maqsadiga yo'g'rilgan darsdan tashqari o'tkaziladigan ixtiyoriy o'qitish shaklidir.

O'quvchilarning fan asoslarini chuqur va mustahkam o'zlashtirishlariga erishish, qo'shimcha o'quv adabiyotlari, ko'rgazmali vositalar yordamida mustaqil ishlarni tashkil etish, belgilangan mavzular bo'yicha kuzatish va tajribalar o'tkazish, o'quvchilarning qiziqishlari va bilimlarni o'zlashtirishga bo'lgan ehtiyojlarini hisobga olgan holda tabaqalashtirilgan ta'limni tashkil etish, ularning ijodiy qobiliyatlari, mustaqil va mantiqiy fikrlarini rivojlantirish, ilmiy dunyoqarashini kengaytirish, kasbga yo'llash, o'quvchilarning ongi va qalbiga "milliy istiqlol g'oyasi"ni singdirish, o'qishni unumli jismoniy va aqliy mehnat bilan uzviy bog'lash maqsadida sinfdan tashqari mashg'ulotlar o'tkaziladi.

O'qituvchining ekskursiya o'tkazishga tayyorgarligi. Ekskursiyaning samaradorligi ko'p jihatdan uning tashkil etilishiga bog'liq. Shu sababli o'qituvchi ekskursiyalarga puxta tayyorgarlik ko'rishi va quyidagi ishlarni amalga oshirishi lozim:

- Botanikani o'qitishning istiqbol rejasiga muvofiq, uni o'tkazish muddatini belgilash;
- Ekskursiya o'tkaziladigan joyni aniqlash, mavzuga oid ob'ektlarni topish, yo'nalishini belgilash;

- O'quvchilarning mustaqil kuzatuv olib borishi uchun ko'rsatmalar, kirish va umumlashtiruvchi matn tuzish;

- Ekskursiyada foydalaniladigan o'quv- laboratoriya jihozlari, metodlarni aniqlash;

- Ekskursiya o'tkazishdan bir necha kun avval, mavzu bo'yich kirish suhbatini o'tkazish, o'quvchilarni kichik guruhlariga ajratish, qo'shimcha adabiyotlarni to'plash bo'yicha o'quv topshiriqlarini berishi lozim;

- Ekskursiya davomida o'quvchilar amal qilishi lozim bo'lgan tartib-qoidalar bilan tanishtirish, ongli intizomni saqlash , berilgan o'quv topshiriqlarini bajarishda faollikni ko'rsatish, notanish o'simliklardan ehtiyot bo'lishini uqtirishi zarur.

Ekskursiya davomida o'quvchilarning bilish faoliyatini tashkil etish va boshqarishda ularni kichik guruhlariga ajratish, kichik guruh uchun o'quvchilardan yetakchi taynlash, yetakchi zimmasiga guruh a'zolarining tartib intizomini ta'minlash, o'quv topshiriqlarining bekamu-ko'st bajarilishi, ekskursiya hisobotini rasmiylashtirish uchun javobgarlik yuklanadi.

Bo'tanikadan ekskursiya o'tkazishda o'quvchilar metodist- olim B.E.Raykov tomonidan ishlab chiqilgan tavsiyalarga amal qilishi lozim.

Ushbu tavsiyalar bugungi kun talabi asosida o'zgartirishlar kiritilgan holda berilmoqda:

- Ekskursiya – sayr emas, balki o'quv-tarbiya jarayonining eng muhim qismi, ekskursiyaning asosiy harakatlantiruvchi kuchi- o'quvchilarning tabiat bilan bevosita muloqoti, ularning mustaqil kuzatishi, kuzatish natijalarini umumlashtirishi va xulosa yasash ekanligini esda tuting.

- Ekskursiya o'tkaziladigan joyni mukammal o'rganib chiqing, havfsizlik qoidalariga javob berishiga ishonch hosil qiling, mavzuga oid reja tuzing.

- Har doim o'quvchilarning e'tiborini mavzuga qarating, ikkinchi darajali masalalarga chalg'imang.

➤ Ekskursiya davomida o'quvchilar tomonidan o'zlashtiriladigan kuzatish va o'rganish mumkin bo'lgan ob'ektlar haqida batafsil hikoya qiling va o'quv topshiriqlarini ularga moslashtiring.

➤ Ekskursiya davomida uzoq tushuntirishlardan saqlaning, muammoli savollar yordamida o'quvchilarni kuzatish va o'rganish natijasida xulosa chiqarish, umumlashtirish, bilimlarni sintezlashga o'rgating.

➤ O'quvchilarni tinglovchi sifatida emas, balki faol fikr yurituvchi sifatida qabul qiling. Ularni avval o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalarni yangi vaziyatlarda qo'llab yangi bilim, ko'nikma va malakalarni egallashlariga imkon yarating.

➤ O'quvchilarning e'tiborini faqat mavzuga oid 5-10 ta ob'ektlarga qarating, juda ko'p ob'ektlarni o'rganish, ularni sanash maqsadga muvofiq emas. Bir vaqtning o'zida berilgan ma'lumotlarning hammasi ham o'quvchilar yodida qolmaydi.

➤ Ekskursiya davomida ortiqcha materiallar bilan o'quvchilarni charchatib qo'ymang, maqsadga muvofiq bo'lgan o'quv topshiriqlarini to'liq va sifatli bajartirishga erishing.

➤ Ekskursiya davomida o'quvchilarning xissiyotini kuchaytirish maqsadida tabiatni muhofaza qilish, fanlararo bog'lanish, ta'lim-tarbiyaning uzviyligiga e'tiborni qarating, lirik chekinish, ma'naviyat daqiqalarini o'tkazishni rejalashtiring.

➤ Ekskursiya davomida to'plagan materiallar asosida uning mazmunini muammoli savollar yordamida qayta ishlab chiqing. Maqsad, mazmun va xulosa uyg'unligiga erishing.

Ekskursiyani o'tkazishda o'qituvchi o'zining nafaqat kasbiy- pedagogic tayyorgarligiga bog'liq bilim, ko'nikma va malakalari balki, tabiathunos sifatidagi bilim, ko'nikma va malakalarini namoyon etishi, ya'ni tabiiy ob'ektlarni tanish, aniqlagichlar bilan ishlash, kolleksiya va gerbariylar tayyorlash va ularni rasmiylashtirish, tabiatdagi tirik organizmlar o'rtasidagi aloqadorlik, oziq zanjiri tarkibiy qismlarini aniqlashi zarur.

Sinfdan tashqari mashg'ulotlar o'quvchilarning o'qituvchi rahbarligida biologiya o'quv dasturidan o'rin olgan mavzularni kengaytirish va to'ldirish maqsadiga yo'g'rilgan darsdan tashqari o'tkaziladigan ixtiyoriy o'qitish shaklidir.

O'quvchilarning fan asoslarini chuqur va mustahkam o'zlashtirishlariga erishish, qo'shimcha o'quv adabiyotlari, ko'rgazmali vositalar yordamida mustaqil ishlarini tashkil etish, belgilangan mavzular bo'yicha kuzatish va tajribalar o'tkazish, o'quvchilarning qiziqishi va bilimlarini o'zlashtirishga bo'lgan ehtiyojlarini hisobga olgan holda tabaqalashtirilgan ta'limni tashkil etish, ularning ijodiy qobiliyatlari, mustaqil va mantiqiy fikrlashini rivojlantirish, ilmiy dunyoqarashini kengaytirish, kasbga yo'llash, o'quvchilarning ongi va qalbiga milliy istiqlol g'oyasini singdirish, o'qishni unumli jismoniy va aqliy mehnat bilan uzviy bog'lash maqsadida botanikadan sinfdan tashqari mashg'ulotlar o'tkaziladi.

Sinfdan tashqari mashg'ulotlarning uch xil turi mavjud:

1. Ayrim o'quvchilar bilan yakka tartibda olib boriladigan mashg'ulotlar.
2. O'quvchilar guruhi bilan olib boriladigan mashg'ulotlar.
3. O'quvchilar bilan ommaviy ravishda olib boriladigan mashg'ulotlar.

Yuqorida qayd etilgan sinfdan tashqari mashg'ulotlar turlari bir- biri bilan uzviy bog'langan, bir-birini to'ldiradi va taqozo etadi.

II BOB. BIOLOGIYA FANI VA MUSTAQIL ISHLARNING TURLARI

Mustaqil ishdan o'qitishning barcha shakllarida, jumladan, darsda, darsdan, sinfdan va maktabdan tashqari ishlarda, ekskursiyalarda foydalanish mumkin.

SHuningdek, undan darsning barcha bosqichlarida, masalan, o'tgan mavzu bo'yicha o'quvchilarning bilimlarini mustahkamlash, yangi mavzuni o'rganish, yangi mavzu bo'yicha o'quvchilarning bilimlarini mustahkamlash, nazorat qilish, baholashda foydalansa bo'ladi.

Biologiyani o'qitishda foydalaniladigan mustaqil ishlarning didaktik maqsadi quyidagilardan iborat:

- o'quvchilarni biologiya fanining asoslari bilan tanishtirish, ilmiy dunyoqarashini shakllantirish va kengaytirish;

- biologiya fani asosi bo'ladigan kasblar bilan tanishtirish;

- o'quvchilarning fanga bo'lgan qiziqishlarini kuzatish, mantiqiy fikr yuritish ko'nikmalari, ijodiy faoliyat tajribalarini rivojlantirish:

- o'quvchilarni turli manbalardan foydalanib, mustaqil bilim olishga o'rgatish orqali o'z-o'zini rivojlantirishga bo'lgan ehtiyojni vujudga keltirish;

- o'quvchilarning aqliy, ahloqiy, iktisodiy, ekologik va sanitar-gigienik ta'lim va tarbiyasini takomillashtirish.

Biologiya fanini o'qitishni undan foydalaniladigan mustaqil ishlar. o'quv vositalari, o'quvchilarning mustaqillik darajasi, didaktik maqsadga qarab ham klassifikatsiya qilish mumkin.

O'qitish vositalariga ko'ra mustaqil ishlarni tashkil qilishda o'zlashtiriladigan bilim manbai sifatida tabiiy va tasviriy ob'ektlar, mikro va makro preparatlar, modal, mulyajlar, darslik va qo'shimcha o'quv adabiyotlari, texnik vositalar, kompyuter texnologiyalarini olish mumkin.

Mustaqil ishlarning mustaqillik darajasiga ko'ra:

-reproduktiv darajadagi mustaqil ishlarda o'quvchilarning olgan yangi bilimlarini mustahkamlash, ob'ektlarni aniqlash va tasniflash ishlarini amalga oshirish ko'zda tutiladi.

-Izlanish xarakterdagi mustaqil ishlarda o'quvchilar o'quv materiallarini izlanish orqali o'zlashtiradi. Masalan, gulli o'simliklar oilalari o'rganilgandan so'ng o'quvchilar o'qituvchi tavsiya etgan gerbariylardan foydalanib, o'simliklar oilasini mustakil aniqlaydilar.

-Tadqiqot xarakteridagi mustaqil ishlarning 3 ta ko'rinishi bir-birini taqozo etadi va to'ldiradi.

Didaktik maqsadga ko'ra mustaqil ishlarning quyidagi shakllari bor. Ulardan foydalanish yaxshi samara beradi, deb hisoblash mumkin.

- O'quvchilar avval o'zlashtirilgan bilim, ko'nikmalar asosida yangi larining bilim va ko'nikmalarni egallashi kerak.

-Bilim va ko'nikmalarni mustahkamlash va amaliyotda qo'llashi lozim.

-O'zlashtirilgan bilim, ko'nikmalarni nazorat qilish va baholash.

-Avval o'rganilgan va endi o'rganilayotgan ob'ektlarni taqqoslab, ular o'rtasidagi o'xshashlik va farqlarni aniklashga mo'ljallangan mustaqil ishlarni bajarish.

Mustaqil ishlarning didaktik maqsadi o'quv topshiriqlarining mazmunini belgilaydi. O'qituvchi mustaqil ish topshiriqlarini didaktik maqsadi bilan bir qatorda o'quvchilarda mavjud bo'lgan amaliy va o'quv ko'nikmalari, o'quv materialining mustaqil o'zlashtirish imkoniyatini hisobga olish, o'quvchilarning ruhiy zo'riqishining oldini olish zarur.

YUqorida qayd etilgan mustaqil ishlarni tashkil etishda o'quvchilarning bilim faoliyati bir xil bo'lmasligiga et'iborni qaratish zarur.

O'quv faoliyatining barcha turlari kabi mustaqil ishlar ham nazorat qilinishi va baholanishi shart.

O'qituvchi o'zining samimiy munosabati. o'z vaqtida uyushtirgan yordami va rag'batlantirishi bilan o'quvchilarning mustaqil ishlaridagi muvaffaqiyatiga zamin tayyorlaydi.

Mustaqil ishlarni tashkil etish shakliga ko'ra:

- o'quvchilarning individual tarzida ishlashga mo'ljallangan;
- kichik guruhlarda ishlashlariga mo'ljallangan;
- o'quvchilarning frontal yoki yoppasiga ishlashiga mo'ljallangan mustaqil ishlarga ajratish mumkin. Ular bir-birini to'ldiradi.

Mustaqil ishlar o'quvchilar bilim faoliyatining tarkibiy qismi bo'lib, unga e'tibor qaratish, samarali tashkil etish lozim.[19,20]

2.1. Sinfda va dars o'qitish jarayonida qo'llaniladigan mustaqil ishlar

Dars-biologiyani o'qitishning asosiy shakli bo'lib, uning tuzilishi, tashkil etilishi, unda o'quvchilarning bilish faoliyatini tashkil etish, boshqarish va faollashtirish masalalari biologiya o'qitish metodikasining asosiy muammosi sanaladi.

Darsda o'quv dasturi talabalari asosida talim-tarbiya uzviyligini taminlash, bu jarayonda o'qitish metodi, vositalaridan samarali foydalanish orqali o'quvchilarning ilmiy dunyoqarashini kengaytirish, DTS bilan meyorlangan talim mazmuni va uning tarkibiy qismlarini shakllantirish, manaviy-axloqiy tarbiyalash, ular ongi va qalbiga milliy istiqlool g'oyasini singdirish amalga oshiriladi.

O'quvchilarga talim-tarbiya berish sifati va o'qitish samaradorligi darsni tashkil etilishi, ularda o'quvchilarning bilish faoliyatini tashkil etish, boshqarish va faollashtirish masalalariga bog'liq bo'ladi.

Dars – biologiya o'quv dasturi bilan meyorlangan mazmunni o'rganish maqsadida yoshi, tayyorgarlik darajasi bir xil, doimiy tarkibga ega bo'lgan

o'quvchilardan iborat guruh (sinf) larda belgilangan vaqt doirasida, qat'iy jadval asosida biologiya o'quv xonasida tashkil etiladi.

O'rganiladigan mavzu mazmunidan kelib chiqqan holda darslar tirik tabiat burchagida, o'quv tajriba maydonida, biologik muzeylarda tashkil etilishi ham mumkin.

Biologiya o'quv dasturida talim mazmuni o'quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlari, bilim zaxiralari hisobga olingan holda berilgan. Biologiya o'quv fanlarining mazmuni mantiqiy ketma-ketlikdagi alohida qismlar – boblar, mavzularga bo'lingan. Har bir mavzu mazmunini o'rganish darslarda amalga oshirganligi sababli, darslar ham muayyan sistemani tashkil etadi, bir-biri bilan mantiqiy bog'langan bo'ladi.

Darsda o'qitish hamma o'quvchilar uchun umumiy bo'lgan o'quv dastur asosida tashkil etiladi, o'qituvchi o'rganilayotgan mavzu mazmuni, talimiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlariga muvofiq, o'quvchilarning bilish faoliyatini tashkil etish, boshqarish va faollashtirishga qaratilgan pedagogik faoliyatni amalga oshiradi.

Demak, o'quvchilarning darsdagi faoliyati ularning o'quv-bilish faoliyatini, o'qituvchining faoliyati esa shu faoliyatni tashkil etish, boshqarish va faollashtirishga qaratilgan pedagogik faoliyat sanaladi.

Darsda o'quvchilarning o'quv-bilish faoliyati, o'qituvchining pedagogik faoliyati bilan uyg'un tashkil etilganidagina o'qitish maqsadlariga erishish mumkin.

Har bir dars o'quvchilarning mavzuga oid bilim, ko'nikma va malakalarni egallash, ilmiy dunyoqarashini kengaytirish, aqliy rivojlanishi, shaxs sifatida tarbiyalash, atrof-muhitgaongli munosabatni tarkib toptirishga xizmat qiladi va biologiyani o'qitishdan nazarda tutilgan umumiy maqsad va vazifalarning ajarilishiga o'z hissasini qo'shadi.

Darsning muvoffaqiyatli tashkil etilishi ko'p jihatdan o'qituvchining darsga qo'yiladigan talablarni bilishi, unga amal qilishiga bog'liq.

Mazkur talablar jamiyatimizning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti, manaviy-marifiy qarashlari, talim muassasalarining maqsadi va vazifalari, o'qitish qonuniyatlari va printsplaridan kelib chiqqan holda belgilanadi.

Biologiya o'qitish metodikasida darsga qo'yiladigan talablar uch guruh metodik, tarbiyaviy va tashkiliy talablarga ajratiladi.

Metodik talablar jumlasiga:

Har bir darsning talimiy maqsadlari va uning darslar sistemasida tutgan o'rnini aniq belgilash;

O'quvchilarning tayorgarlik darajasi, o'qitish maqsadlari, o'quv dasturining talablariga mos holda o'quv materialini optimal darajada tanlash;

Darsda rivojlantiriladigan umumiy va shakllantiriladigan hususiy biologik tushunchalar, tarkib toptiriladigan ko'nikma va malakalarni aniqlash;

Darsning har bir bosqichining maqsadini amalga oshirish maqsadida o'qitishning samarali metodlari, vositalari, bilimlarini nazorat qilish va rag'batlantirish metodlarini aniqlash va ularni uyg'unlashtirish orqali o'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish;

Darsda o'quvchilarni yalpi o'qitish bilan bir qatorda yakka va kichik guruhlarda mustaqil ishlarini tashkil etish orqali ularda tahsil olishga bo'lgan ehtiyojini qondirish, qiziqishini orttirish, mustaqillikni rivojlantirish kabilarni kiritish mumkin.

Darsga qo'yiladigan tarbiyaviy talablar:

Darsning o'quvchilarning o'zlashtirayotgan bilimlari, mavzuning ilmiy dunyoqarashni kengaytirish, manaviy-axloqiy, aqliy, gigienik, jismoniy, jinsiy, iqtisodiy tarbiya berish, estetik tuyg'u, mehnatsevarlik, ekologik madaniyatni tarkib toptirish imkoniyatlarini xisobga olgan holda tarbiyaviy maqsadlarining aniq qo'yilishi;

O'quvchilar tomonidan bilimlarni mustaqil o'zlashtirish ko'nikma va malakalari, biologiyani o'rganishga bo'lgan ehtiyojini qondirish, qiziqishini

rivojlantirish, ulning faoliyatidagi ijodiy faollik va tashabbuskorlikni rag'batlantirish;

O'qituvchi tomonidan yo'qari darajadagi pedagogik takt va muloqot madaniyatiga amal qilish kabilarni o'zida mujassamlashtiradi.

Darsga qo'yiladigan tashkiliy talablar o'z ichiga quyidagi:

Mavzuni reja asosida darsning ilmiy-metodik savitada loyihslangan ishlanmasi mavjudligi;

Darsning har bir bosqichini tashkil etishning aniq rejalashtirilganligi;

Mavzuga oid tarqatma va didaktik materiallar, o'quvchilar bilimni nazorat qilish va baholash uchun o'quv topshiriqlar, differentsiyal topshiriqlarning tuzilganligi;

Vaqtdan unumli foydalanishni yo'lga qo'yish uchun darsning texnologik xaritasining mavjudligi;

O'qitish vositalarining mavjudligi va ulardan samarali foydalanishni yo'lga qo'yilishi kabilarni oladi.

Biologiya o'qituvchi ushbu talablarni yaxshi bilishi, darslarga tayyorgarlik ko'rish va o'tkazishda albatta ularga amal qilishi lozim.

Biologiyani o'qitishda darslar tizim holda qo'llaniladi shu sababli o'qituvchi dars tiplari va turlarini, ularning o'ziga xos xususiyatlarini bilishi lozim.

Dars tiplari va turlari

O'quv dasturidan o'rin olgan mavzularning mazmuni, talimiy-tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlari hisobga olingan holda darslarning tuzilishi, unda o'quvchilarning bilish faoliyatini tashkil etish va boshqarish o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'ladi.

Darslarning yo'qorida qayd etilgan xususiyatlariga ko'ra darslar tipologiyasi ishlab chiqilgan. B.P.Esipov, G.I.Shukina darslarni asosiy didaktik maqsadlariga ko'ra tasniflashni tavsiya etgan. Mazkur tipologiyada darslar quyidagi:

- Bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish;

- Bilimlarni tizimga solish va umumlashtirish;
- Bilim, ko'nikma va malakalarni mustahkamlash, takrorlash;
- Nazorat va baholash;
- Kombinirlashgan (majmuali) tiplarga ajratilgan.

Mazkur tipologiyani tahlil qilish, darsni tashkil etish bosqichlarini etiborga olinmaganligini ko'rsatdi. Har bir darsda muayyan bilim, ko'nikma va malakalar shakllantiriladi va tizimga solinadi va umumlashtiriladi, shuningdek, o'quvchilarning o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalari nazorat qilinadi va baholanadi. Shu sababli ushbu tipologiya kamchiliklardan holi emas.

N.E.Kuznetsova darslarning asosiy didaktik vazifalariga binoantasniflagan:

- Yangi o'quv materialini o'rganish;
- Nazariy bilim, ko'nikma va malakalarni amaliyotga qo'llash va takomillashtirish;
- Bilimlarni tizimga solish va umumlashtirish;
- Nazorat va baholash;

Aaralash yoki kombinirlashgan(majmuali) tiplarga ajratgan.

Bu tipologiya haqida ham yo'qaridagi fikrlarni aytish mumkin.

G.I.Belov, E.P.Brunovt, I.D.Zverev, A.N.Myagkova kabi metodist olimlardarslarni o'tkazish usuliga ko'ra tiplarga ajratgan:

Maruza darslari

Ekskursiya darslari

Suxbat darslari

Kinodars

Laboratoriya darslari

Mustaqil ishlash darslari.

Bu tipologiyadan o'rin olgan tiplar to'g'ri belgilangan emas, olimlar tomonidan dars tiplari va turlari aralashtirilib yuborilgan.

S.V.Ivanov tomonidan darslar o'quv jaroyanining asosiy bosqichlari asosida tiplarga ajratilgan:

- . Kirish darslari
- . O'quv materiallari bilan dastlabki tanishish darslari
- . Tushunchalarni shakllantirish darslari
- . Mashq qilish darslari

Ushbu tipologiyada darslarning hamma xususiyatlari hisobga olinmagan.

Jumladan, talim mazmunining tarkibiy qismlari bo'lgan ko'nikma va malakalar etibordan chetda qolgan.

N.M.Berzilin darslarni tiplarga ajratishda tushunchalarni asosiy mezon etib belgilagan”

- . Anatomik mazmundagi darslar
- . Morfologik mazmundagi darslar
- . Filogenetik mazmundagi darslar
- . Ekologik mazmundagi darslar va x.k.

Qayd etilgan tipologiyani amaliyotga joriy qilish qiyin kechadi, chunki talim-tarbiya jarayonida tushunchalar bir-biri bilan uzviy ravishda shakllantiriladi.

Tushunchalarning bu tarzda tiplarga ajratilishi maqsadga muvofiq emas [31].

V.M.Korsunskaya, N.A.Rikov, I.N.Ponomareva, D.I.Traytak kabi metodist-olimlar bobni o'rganishda darsning o'рни va talim jarayonining bosqichlari asosida tiplarga ajratgan. Har bir bob mantiqiy bog'langan mazmunni o'z ichiga olgan bo'lib, mavzular alohida dars shaklida o'rganiladi. Shu sababli, har bir bobni o'rganishda o'qitish maqsadlari va o'quv materialini yoritish nuqtai nazaridan o'zaro mantiqiy bog'langan darslar tizimidan foydalaniladi. Olimlarning fikricha darslar quyidagi tiplardan iborat bo'lishi lozim:

- . Kirish darslari
- . O'quv materialini mazmunini yorituvchi darslar
- . Umumlashtiruvchi darslar

Yo'qarida keltirilgan ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, darslar tipologiyasi bo'yicha yagona fikrga kelinmagan va bu masala bahsli sanaladi.

Bizning nazarimizda ushbu tipologiya biologiyani o'qitishda qo'llaniladigan darslarning maqsadi va vazifasiga mos keladi.

Biologiyani o'qitish amaliyotida u yoki bu tipga aynan mos keladigan darslarni topish qiyin, shu sababi har bir tip muayyan dars turlarini o'z ichiga oladi.

Kirish darslari. Mazkur darslarning asosiy vazifasi o'quvchilarni yangi o'quv materialini qabul qilishga tayyorlash, fanlararo, mavzulararo bog'lanishni amalga oshirish, muammoli vaziyatlarni yaratish, O'quvchilarning avval o'zlashtirgan bilimlarini yangi va kutilmagan vaziyatlarda qo'llashga o'rgatish orqali yangi bilimlarni egallashga erishish, qiziqishini orttirish sanaladi.

Ushbu darslarda o'quvchilarga individual yoki kichik guruhlarda bajarishi uchun o'quv topshiriqlari (qo'shimcha adabiyotlar ustida mustaqil ishlash, maruza, gerberiy, kolleksiya, jadval tayyorlash, kuzatish o'tkazish, tajribalar qo'yish) beriladi. [21, 22, 31].

Ushbu darsda o'quvchilar bobning maqsadi va vazifalari, bobdan o'rin olgan mavzular, asosiy g'oya va nazariyalari, o'quv va amaliy faoliyatning o'ziga xos xususiyatlari, DTS bilan meyorlangano'zlashtiriladigan bilim, ko'nikma va malakalar, darslik, qo'shimcha adabiyotlar, daftar bilan ishlashtanishtiriladi.

Kirish darslarida o'qituvchi tomonidan mazkur bobni o'rganishning ahamiyati, ushbu jarayonda hal etiladigan muammolar, mavzu mazmuni va maqsadga muvofiq holda qiziqarli analogiyalardan foydalanishga etibor qaratilishi o'quvchilarda fan asoslari, xususan shu bobdan o'rin olgan masalalarni o'rganishga bo'lgan qiziqishning ortishi, bilimlarni o'zlashtirishga bo'lgan ehtiyojlarini qondirishga zamin tayyorlaydi.

Kirish darslari o'quvchilarning avval o'zlashtirgan bilimlaridan yangi vaziyatlarda qo'llash uchun imkon beradigan muammoli savol-topshiriqlar, muammoli suhbat bilan boshlanishi maqsadga muvofiq.

Darsning shu tarzda boshlanishi o'quvchilarning yangi bobni o'rganish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarini aniqlash, avval o'rganilgan boblar bilan mantiqiy bog'lanishni amalga oshirish imkonini beradi.

2.2. Laboratoriya va amaliy ishlarni bajarishda foydalaniladigan mustaqil ishlar

Laboratoriya mashg'uloti biologiya yqitishning tashkiliy shakllari dan biri bo'lib, unda o'quvchilar o'qituvchi rahbarligida tirik va tabiiy ob'ektlarni, hayotiy hodisa va protsesslarni amaliy (mustaqil ishlash) metodlar vositasida o'rganadilar.

Biologiyadan laboratoriya mashg'ulotini o'tkazish o'simlik yoki hayvonni, uning hayotiy funksiyalarini mustaqil tanib olish va aniqlash, kuzatish va tajribalar o'tkazish imkoniyatini beradi. O'quvchilar xotirasida uzoq saqlanadi.

Laboratoriya mashg'ulotlari da olingan bilimlar va hodisalarni mustaqillik bilan o'rgana olish ko'nikmalarini hosil qilish va rivojlantirish jihatidan ham ahamiyatlidir, chunki bunday darslarda o'quvchilar aktiv bo'lishi bilan birga mustaqil ish ko'radilar, mustaqilliq ruhida tarbiyalanadilar.

Organizm tuzilishi va fiziologik funksiyalarini mustaqil o'rganish o'quvchilarning o'z faoliyatlaridan qanoat hosil qilishlariga imkon beradi, ularda biologik bilimlarni qiziqish bilan, yanada to'laroq egallashga intilish uyg'otadi.

Biologiya bo'yicha laboratoriya mashg'ushlotlari, unda o'quvchilar bajaradigan ishlarning xarakteri va o'quvchilardagi mustaqil ish bajarish ko'nikmalariga qarab ikki xil: a) frontal usulda va b) o'qyvchilarga ish to'g'risida oldindan to'liq topshiriq berish yo'li bilan o'tkaziladi.

Frontal usul bilan o'tkaziladigan laboratoriya mashg'ulotida o'qyvilar bajarishi lozim bo'lgan har bir ish bir qancha qismlarga (bosqichlarga) bo'linib, ularning har qaysisi yuzasidan yqituvchi kyrgazma beradi, uni hamma o'quvchilar baravariga bajarib boradilar

Bu usulda laboratoriya mashg'uloti o'tkazishning afzalligi shundaki, unda mustaqil ish baravariga boshlanib, bir vaqtda tugallanadi; ish natijasini aniqlash maqsadida yqituvchi qo'ygan savollarga tegishli javoblar tayyorlash bilan o'quvchilar o'quv materialining shu ishga taalluqli masalasini engillik

bilan o'zlashtirib oladilar, o'qituvchi esa ishni o'quvchilar tamonidan qanday bajarilayotganligini qiyinchiliksiz nazorat qila oladi va zarur bo'lganda ularga o'z vaqtida yordam ko'rsatadi [6, 7, 8, 15, 16, 17, 31].

2.3. Darsdan va sinfdan tashqari ishlarni bajarishda mustaqil ishlardan foydalanish

Biologiya fani bo'yicha darsdan tashqari ishlar: biologiya xonasida, tirik tabiyat burchagida, o'quv-tarbiya maydonlarida bajariladi. Sababi, o'simliklar va hayvonlar ustida olib boriladigan ko'pgina uzoq muddatli kuzatishlar o'quv jadvaliga sig'maydi. Biologiya kursini o'rganish davomida har bir o'quvchi mikroskop bilan ishlash malakasiga ega bo'lishi kerak. Buning uchun o'qituvchi navbat bilan 3-5 o'quvchining dars oldidan yoki darsdan so'ng mikroskop bilan ishlashini tashkil etishi kerak.

O'quvchilar 3-5 tadan guruhlariga bo'linib o'simliklarning mayda qismlarini o'rganish bo'yicha o'qituvchi topshirig'i bilan keyinchalik darslarda foydalaniladigan uzoq muddatli biologik kuzatish va tajribalarni olib boradilar.

Har-bir o'quvchi yil davomida bir yoki ikki darsdan tashqari ishlarni bajaradi va ularning bajarilishiga o'qituvchi baho qo'yadi.

Darsdan tashqari ishlar ma'zmuniga ko'ra uyga beriladigan tajribalarga yaqin hisoblanadi. Lekin uy ishlari ancha oddiy bo'lib, sinf o'quvchilari uchun bir vaqtda beriladi. Darsdan tashqari ishlarning uy ishlaridan farqi ba'zan dastlabki xarakterda bo'ladi, ya'ni sinfda o'rganishdan bir necha kun, hafta va hatta bir necha oy ilgari beriladi. Masalan, botanikadan: suv o'simliklari bilan tajribalar -2 oy. Bargda kraxmal izlari hosil bo'lishi - 2 oy, poya bo'ylab suvning ko'tarilishi -2-3 kun ilgari berilishi mumkin.

Maktabda va tirik tabiyat burchaklaridagi darsdan tashqari ishlar ko'pincha kuzda, qishda va erta bahorda bajariladi. Asosan ular botanikani o'qitishda qo'llaniladi.

Botanikadan darsdan tashqari ishlar dasturning barcha mavzusi bo'yicha berish mumkin. Masalan, «Urug'» mavzusi bo'yicha darsdan tashqari o'quvchilar urug'ning bo'rtishini kuzatadilar, uning unuvchanlik foyzini aniqlaydilar. Gulli o'simliklar biologik xususiyatlarini kuzatadilar.

Tabiyatdagi darsdan tashqari ishlar asosan morfologiya, ekologiya vasistematikaga doir hodisalarni aniqlashga va gerbariy hamda kolleksiyalar tayorlashga yordam beradigan kuzatishlar uchun ko'pincha yozda topshiriqlar beriladi va «yozg'i topshiriqlar» deb ataladi. Bunda yoz davomida V-sinf o'quvchilariga poya, ildiz va barglari har xil shakldagi o'simliklarni yig'ish: VI sinf o'quvchilariga madaniy va yovvoyi o'simliklarni yig'ish va gerbariy tayyorlash topshiriqlari beriladi. Bunda o'qituvchi yozg'i tatil vaqtida o'quvchilarning chet davlatlarga ota-onasi bilan borishini oldindan bilib ularga chet davlatlardan o'simlik namunalari olib kelishni topshiriq qilib beradilar.

Tirik tabiyat burchagida, uchastkada va tabiyatda bajariladigan darsdan tashqari ishlar darsda o'rganish uchun qiziqarli material beradi, tabiyatga qiziqishni mustaqil ishlash uchun esa ko'nikmalarni tarbiyalaydi, tabiyatga qiziqishni rivojlantiradi.

Dars bilan uzbiy bog'liq holda darsdan tashqari ishlar biologiyani o'qitishningmajburiy shakli bo'lib qoldi. Ular darsni davom ettiradi va .mustahkamlaydi [9, 25].

III BOB. BIOLOGIYA FANIDAN MUSTAQIL ISHLARNI BAJARISH VA UNING NATIJALARI

3.1. Ilg'or texnologiyalar va uqitish usullari

Yurtimizda barcha oliy ta'lim muassasalarida ta'lim jaraenini samarodorligini oshirish maksadida uquv-uslubiy majmualar yaratish borasida izchil sa'y-xarakatlar olib borilmokda. Yurtboshimizning utgan yili kabul kilgan «Oliy ta'lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustaxkamlash va yukori malakali mutaxassislar tayerlash sifatini tubdan yaxshilash chora-tadbirlari tugrisila»gi karorida xam moddiy – texnik bazasini mustaxkamlash va modernizatsiyalash bilan birga, ilgor pedagogik texnologiyalar va ukitish shakllarini joriy etish asosida iktisodiet soxa va tarmoklarida kilinadigan oliy ma'lumotga ega mutaxassislarni tayerlash sifatini tubdan yaxshilash masalasi xam vazifa sifatida kuyilgan.

Xususan, barcha fanlar buyicha xar bir uqituvchining zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalari, shuningdek, multimedia vositalaridan foydalangan xolda bilim berishga muljallangan ayni kunda 6000ta uquv-uslubiy majmudan ayni kunda 3000dan ziedroginging elektron variantlari yaratilgan. Dars mashgulotlarida yangi pedagogik texnologiyalarni joriy eti shorkali uquv-uslubiy faoliyatni yaxshilashga, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarni joriy qilish orkali ta'lim jarayoni sifatini yanada oshirishga katta e'tibor qaratilgan. Bu ikki tomonlama faollikka erishishga, talabada munozara, muzokara yuritish kunikmasini qaror topishiga, nazariy bilimning malakaga aylanishini ta'minlashga va shuningdek, mustaqil ta'limning samarasi yanada oshishiga olib keladi. Shuning uchun, uqitiladigan fandan uquv-uslubiy majmua, elektron tuplamlar yangi talab asosida yaratilib, ularning tuzilishi va mazmuni muntazam ravishda takomillashtirib va tuldirilib borilish kerak. Zamonaviy innovatsion

texnologiyalardan foydalanib uquv mashg'ulotlarini utish uchun uqiyuvchining kasbiy maxoratini oshirishga xam jiddiy e'tibor qaratish lozim.

Shu urinda ta'lim va tarbiyani yangi sifat bosqichiga olib chiquvchi uquv-uslubiy majmualarning shakli qanday bulishi, u uzida nimalarni mujassamlashtirishi, qanday talablarga javab berishi kerakligi xaqida xam tuxtalib utish joiz.

Umuman uquv-uslubiy materiallar, elektron tuplamning qulayliklari nimada?

- Uquv-uslubiy materiallar yetarli va tuliq bulishi dars samaradorligining asosiy mezonidir. Boisi, uquv-uslubiy majmualar tegishli fan buyicha xarita, kalendar – reja, amaliy mashgulotlar rejasi, adabiyotlar ruyxoti, savolnomalar, suz va iboralar ruyxati, ma'ruza matnlari, mustaqil ish mavzulari tarqatma materiallar, interfaol dars utish materiallari, test va boshqalarni uzida mujassamlashtiradi. Bu borada tuplangan tajriba va dars davomidagi kuzatuvlarga asoslanib, xar yili majmualarning takomillashtirilgan shakllari ishlab chiqiladi. Yana bir e'tiborli jixat, elektron tuplam tayerlash asosida uquv-uslubiy qullanma va darslik yaratish uchun xam tajriba tuplanadi.

Shuningdek, uquv-uslubiy majmualarning asosiy kulayligi axborot texnologiyalardan keng foydalanishga sharoit yaratilaetganda kuzga tashlanadi. Qolaversa, barcha uquv-uslubiy qullanmalarning elektron shakllari mavjudligi, axborot - resurs markazida, avtomatlashtirilgan elektron katalog tizimining ishlab kelayotganligi, zionet tarmog'i bilan bir qatorda, ichki tarmoq orqali biriktirilgan fanlar buyicha uquv-uslubiy majmualardan foydalanaetgani natijasida darslarda olingan bilimlarni takrorlab, intellektual saloxiyatini oshirmoqda. Dars soatlaridan tuliq va samarali foydalanish ta'limning asosiy sharti va talabi bulsa-da, ma'ruza yoki amaliyot mashg'ulotlarida talabaning e'tiborini mavzuga jalb etib, diqqatini ushlab turish oson emas. Ayniqsa, bugungi axborot texnologiyalari davrida zamonaviy bilimlarni uzlashtirgan yoshlarga eski uslub va yondashuvlar bilan ilm ulashib bulmaydi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish esa

darsni tula va mazmunli yetkazib berishga xizmat qiladi, rangbaranglikni ta'miynlaydi.

Mana shunday tartibda tinimsiz izlanish va boy tajriba asosida takomillashtirilgan uquv-uslubiy majmua, elektron turkum uquv jaraeniga tatbik etiladi. Bundan tashkari, elektron tuplamda mustakil mashgulotlar uchun yetarli materiallar berilgani talabalar uchun xam ayni muddao bulmokda, ular bush vakitlarida xam darsda tushunmagan urinlarini takrorlash, uzlashtirish imkoniga ega bulishmokda.

Majmualarning elektron variantlari uquv dasturlariga mos bulgan uquv adabietida muayan soxa buyicha bilimlarini va uning uziga xos jixatlarini kamrab olmokda xamda uquv adabietlari bilan ta'minlash darajasini oshirmokda. Uquv-uslubiy majmualarning bu kabi kulayliklariga dars jaraenlarini kuzatib ishonch xosil kilsa, xatto xar bir mavzu yuzasidan kuplab misollar keltirsa buladi. Uquv jaraenining bu kabi xar jixatdan takomillashtirilaetgani esa yeshlarning ilmiy saloxiyatida yakkol namoen bulmokda.

Xulosa qilib aytganda, oliy ta'lim muassasalarida istiqbolda ta'lim jaraenining pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, axborot resurslar bilan ta'minlanishi yanada bir qator vazifalar belgilanganki, bu yangilanishlar malakali mutaxassislar tayerlash sifati va samarodorligi oshishiga xizmat qiladi.

3.2. O'quvchilarning o'quv faoliyatini tashkil etishda mustaqil ishlarning roli

HozirgipaytdapedagogvapsixologlarningdiqqatmarkaziniO'quvpredmetlarini ngnazariyasoslarivaularningtuzilishibilanbirqatordaO'quvchilarfaoliyati, ungadaxildorpsixologikvapedagogikqonuniyatlarhamdaO'quvfaoliyatinisamaralibo shqarishomillarixambandetibturibdi. O'quvchilarningbilishfaolliginioshirish,

ularni o'sishga qiziqtirish va ularni mustaqil bilim olishga ko'nikmalarini shakllantirish-dolzarb muammodir.

Ma'lumki, bilish faoliyati, bilish faolligi va bilish tashabbuskorligi kabi tushunchalar bilan bir qatorda bilish mustaqilligi xam katta ahamiyat kasb etadi.

Faollik-faol, tezkor faoliyat bo'lsa, tashabbuskorlik-topqirlik, tadbirkorlik, mustaqil va faol harakatlar yig'indisidir. Mustaqillik-erkin hatti-harakat, fikr yuritish, tashabbuskor bo'lish vaqat'iy qaror qabul qilish qobiliyatidir.

O'rganish-o'quvchilarning yangi bilimlarni o'zlashtirish jarayonidir. O'rganish o'quv faoliyati darajasiga ko'tarilishi uchun o'quvchilar bilimlarni egallash davomida ularni boyitadigan, o'quv harakatlarining yangi usullarini o'zlashtirishi, mustaqil ravishda O'quv topshiriqlarini belgilashi, o'z-o'zini nazorat qilish va o'z xususiy faoliyatini baholash mezonlarini bilishlari kerak.

Ta'lim-tarbiya jarayonlari o'quvchilarning o'quv faoliyati yordamida amalga oshiriladi. Bunday faoliyat dars va darsdan tashqari tadbirlarda ishtirok etish, o'qituvchi va boshqa shaxslar bilan muloqat, mustaqil ishlar, mustaqil fikrlash, turli vaziyatlarga shaxsiy munosabat bildirish, o'quvchi xulqiga va uning psixik faoliyatiga ta'sir etuvchi omillar yordamida amalga oshadi, bular ichida mustaqil ishlar alohida ahamiyat kasb etadi.

O'quvchilarning mustaqil ishlari-bu o'qituvchining bevosita ishtirokisiz, lekin belgilangan vaqtda uning topshirig'i asosida bajariladigan ishlardir. Mustaqil ishlash metodlari o'qitishning ta'lim beruvchi, tarbiyalovchi va rivojlantiruvchi vazifalarini amalga oshirishga yordam beradi.

Ta'limiy jihatdan bu metodlar nazariy bilim, amaliy ko'nikmalarni mustaqil egallashga, ularni takrorlash, mustahkamlash va chuqurlashtirishga yordam beradi.

Tarbiyaviy ma'noda ular shaxsning mustaqillik, mehnatsevarlik, mas'uliyatlilik kabi xislatlarini tarbiyalaydi.

Mustaqil ishlash tafakkur, ko'nikma va malakalarning rivojlanishiga yordam beradi, shaxsning irodasini chiniqtiradi. O'qitishning bu metodlari o'quvchilarni

mustaqilmexnat faoliyatiga va maktabni bitirgandan so'ng o'sishni davom ettirishga tayyorlashda katta ahamiyatga ega.

Mustaqil ishlash samaradorligini oshirish yollari to'g'risida taniqli olim YU. Babanskiy [9] quyidagi xulosalarni keltiradi:

1. Bilim berish tajribasida mustaqil ishlardan foydalanishni mumkin qadar kengaytirish zarur.

2. Mustaqil ishlarni qollash mezonlari o'quv materiallari mazmunining tushunarli bo'lishi va mazkur bosqichdagi o'quvchilarning undan foydalanishga tayyorliklari birligida bo'lishi kerak. O'quvchilar, xatto yetarli darajada tayyorgarlikka ega bo'lmagan xolarda ham mustaqil ishlash metodlaridan voz kechmaslik, aksincha „o'quvchilarga faol yordam bera borib, mustaqil ishlash elementlarini sekin-asta kiritish lozim. Bu ishning keyingi bosqichlarida esa o'qitish metodlari tizimidagi mustaqil ishlash salmog'ini sekin-asta oshirish kerak. Barcha o'quvchilarda bilish mustaqilligini rivojlantirish, mustaqil ishlashni qollash darajasini sinfdan – sinfga oshira borish zarur.

3. Mustaqil ishlardan ayrim mashqlarni bajarish jarayonida mashqlar, topshiriqlarni yo'l – yo'lakay bajarib, tekshirish savollariga javob berib, butun boblarni mustaqilo'rganish jarayonida xam foydalaniladi.

4. Mustaqil ishlashdan foydalanish doirasini mumkin qadar kengaytirish, o'quvchilarning mustaqil ishlarni bajarishlariga imkon yaratish uchun quyidagilar zarur:

- O'quvchilarning darslik, kitob, ma'lumotnomalar bilan ishlash ko'nikma va malakalarini shakllantirish;

- O'quvchilarning o'sish, yozish, xisoblash va boshqa faoliyatlari sur'atini oshirish; ularda asosiy tushunchani asosiy bo'lmaganidan farqlash va o'z-o'zini nazorat qilish malakasini hosil qilish;

- O'quvchilarga uy vazifalarini bajarish hamda hisobotlar tuzishning tartib va qoidalarini haqida ko'rsatma berish;

-mustaqil ishlarni bajarishda o'quvchilarga tezkor yordam ko'rsatishning maxsus usullarini o'ylab topish;

-mustaqil ishlarning bajarilish dinamikasi va tipik xatolar hamda qiyinchiliklarni aniqlashni tezkor nazorat qilish;

-mustaqil ishlarni muvaffaqiyatli bajargan o'quvchilarni rag'batlantirish, qiziqtirish va tanqidiy baholash.

5. Mustaqil ishlarni tashkil etishda differensial hamda individual yondashish zarurligini unutmaslik kerak. Bu maqsadlarda tayyor va o'quvchilar ko'magida mustaqil tayyorlangan didaktik materiallardan xam foydalanish o'rinlidir.

6. O'qituvchilar mashqlar miqdorini optimal tanlashga alohida e'tibor berishlari zaruriyat tug'ilganda yuzaga keluvchi qiyinchiliklarni tabaqalashtirish yo'li bilan yo'qotishga harakat qilishlari lozim.

O'qituvchining darsdagi faoliyati asosan barcha o'quvchilarni yangi bilimlar bilan qurollantirishdan iborat bo'lsa xam ma'lum vaqt davomida individual tarzda ishlaydi. O'quvchilarning dars davomidagi faoliyati mustaqillikdan iboratdir. Dars samarasi yangi materialni bayon qilish bilan bir qatorda o'quvchilarning mustaqil topshiriqlarni olishi va uni hal qilish faoliyati orqali orttiriladi. Mustaqil ishlar darsdan so'ng davom ettirilishi bilan xamdiqqatga sazovordir.

O'quv faoliyati muammolari psixologiya sohasida A.S.Granitskaya, V. L. Krutetskiy, N.F.Talizina ishlarida, pedagogika va didaktika sohasida YU. K. Babanskiy, V.P.Bespal'ko, V.V.Guzeev, M.L.Podlasiy, G.K.Selevko, G.I.Shukina ishlarida yoritilgan.

Mustaqil ishlar dars jarayonida (sinfda) va darsdan tashqarida bajariladigan ishlarga ajratiladi.

3.2.1. Darsda bajariladigan mustaqil ishlar

Kimyo darslarida o'quvchilar tomonidan quyidagi mustaqil ishlar bajarilishi mumkin:

1. Darslikdagi mavzu matnini o'rganish.
2. Berilgan mavzuga oid mashqlarni bajarish.
3. Eksperimental vaxisoblashga oid masalalar yechish.
4. Mustaqil test topshiriqlarini yechish.
5. Tajriba va kuzatishlar o'tkazish.
6. Jadvallar va sxemalar bilan ishlash.
7. Ko'rgazmali qurollar vaboshqao'quv vositalari bilan ishlash.
8. Mavzuga oid materiallarni kompyuter yordamida o'rganish.
9. Mavzuni o'rganishda internet materiallaridan foydalanish.
10. Kimyoviy boshqotirmalar, topishmoqlar va turli individual vazifalarni hal qilish.

Mustaqil ishlarni tasniflash va tavsiflashda bir qator munozaralarga sabab bo'lishi mumkin. R. G. Ivanova ishlarini to'ldirgan iolda kimyo bo'yicha mustaqil ishlarning quyidagi tasnifini keltiramiz

Qaysi turdagi bo'lishidan qat'iy nazar, mustaqil ishlar ma'lum bir savol va topshiriqlar yordamida amalga oshiriladi.

Odatda topshiriqlar oddiydan murakkabga qarab tuziladi vahar bir topshiriq ma'lum bir didaktik maqsadni amalga oshirishga yo'naltirilgan bo'ladi. Mustaqil ishlarning alohida turlari o'zaro bir – biri bilan uzviy aloqador bo'ladi va ma'lum sharoitda qo'shilib ketishi xam mumkin

Masalan, kimyoviy tajribalarni bajarish frontal tarzda amalga oshirilishi mumkin. Bunda o'quvchilar faoliyati ko'chirma xarakterga ega bo'ladi, tajribalar esa o'rganilgan materialni mustahkamlash maqsadida o'tkaziladi.

Darsda mustaqil ishlarni tashkil qilishda o'quvchilarning bilish faolligini oshirish muhim ahamyatga ega.

Agar, o'quvchilar qo'yilgan masalani tushunsa va bajarish kerak bo'lgan ishga qiziqsagina, yangi bilimlar yaxshi idrok qilinadi. Maqsad va vazifalarni o'rtaga qo'yishda o'quvchilarning mustaqil bo'lishga, o'zini namoyon qilishga intilishini va bilim olishga chanqoqligini hisobga olish zarur. Agar darsda shu

ehtiyojlarni qondirishga sharoit yaratilgan bo'lsa, o'quvchilar qiziqish bilan ishga kirishadilar.

Bilishga bo'lgan qiziqishni oshirish murakkab masala bo'lib, o'quvchilarning o'quv jarayonidagi samaradorlik natijasi ana shu masalaning qanday hal qilinganiga bog'liqlikda yuzaga chiqadi. Pedagogika va psixologiyada o'quvchilarning bilishga bo'lgan qiziqishini shakllantirishga doir umumiy qarashlar mavjud

Mustaqil ishlarning tasnifi

T/r Klassifikatsiya qilishga asos bo'ladigan belgilari Mustaqil ishlar

I. Didaktik maqsadga ko'ra

1. Tayanch bilimlarini takrorlash va yangi materialni o'rganishga tayyorlash uchun.

2. Yangi materialni o'rganish uchun.

3. Bilimlarni tizimlashtirish uchun.

4. Takrorlash mashqlarini bajarish yoli bilan bilim va ko'nikmalarni mustahkamlash uchun.

5. Bilimlarni yangi vaziyatda qollash uchun.

6. Tekshirish va nazorat qilish uchun.

II. O'quvchilarning bilish faoliyatining xarakteriga ko'ra

1. Namuna bo'yicha bajariladigan, ko'chirma xarakterli.

2. Qisman – izlanuvchan xarakterli.

3. Tekshirish (tadqiqot) xarakteridagi.

III. O'quvchilar ishlarini tashkil qilish shakliga ko'ra

1. Frontal (yalpi).

2. Guruh holidagi.

3. Individual – differensial tarzidagi.

IV. Bilim manbai va o'qitish vositalariga ko'ra

1. Darslik va boshqa qo'llanmalar bilan.
2. O'qib chiqilgan matn bo'yicha reja va ma'ruza konspekti tuzish
3. Ekranli qo'llanmalar bilan ishlashdan keyin sxema, reja tuzish
4. Tarqatma materiallar bilan
5. Biologik tajribalarni bajarish bo'yicha
6. Modellar orqali
7. Sifat va xisoblashga doir masalalarni og'zaki yoki yozma ravishda yechish orqali
8. Biologik diktantlar yozish bilan
9. Eksperimental masalalar yechish bilan
10. Grafik ishlarni bajarish bilan
11. Doklad va referatlar tayyorlash bo'yicha
12. Mustaqil test topshiriqlarini yechish
13. Mavzuga oid materiallarni kompyuter yordami o'rganish
14. Mavzuni o'rganishda Internet materiallaridan foydalanish
15. Biologik boshqotirmalar va topishmoqlar bilan ishlash
16. Biologik bo'yicha bilishga oid o'yinlarda ishtirok etish.

Bilishga qiziqishni oshirish uchun tanish narsada yangilikni ko'ra bilishni o'rgatish, sekin va astalik bilan o'quvchilarni elementar, oddiy bilimlar darajasidan ilmiy tushuncha va xulosalar chiqarish darajasiga ko'tarish muhim. Bilishga qiziqish ilmiy kashfiyotlar tarixi, g'oyalar kurashi, olimlar mehnati va moddalarning turmushda qo'llanilishi haqida gapirilganda uyg'onadi. Kimyo kursining o'quv materiali shunday imkoniyatlarni beradi.

Psixologlar ta'kidlashicha, o'quv faoliyatining faollashishi bilishga bo'lgan qiziqishni rivojlantiradi. O'qitish jarayonining faollashishiga o'quvchilar qiziqishlarining xususiyatlari va ma'lum o'quv – tarbiyaviy maqsadlarga muvofiq tashkil etilgan turli mustaqil ishlarni qollash bilan erishiladi.

O'qituvchi dars boshlanishidan bilimga qiziqish paydo bo'lishi muhimligini e'tiborga olgan holda metodikaning turli aspektlarini o'ylaydi. Ularning eng muhimlari 3 ta holatga tegishli: birinchidan, o'quvchilar diqqatini dars maqsadi va vazifalariga qaratish; ikkinchidan, takrorlanayotgan va yangidan o'rganilayotgan material mazmuniga qiziqish uyg'otish; uchinchidan, o'quvchilarni ular uchun qiziqarli bo'lgan ish shakliga kirishishini ta'minlash.

Yangi materialni faol idrok qilish o'quvchilarning kimyoviy tafakkurini shakllantirishning muammoli vaziyatlari bilan bog'liq masalalar muhokama qilinadigan darslarda sodir bo'ladi. Mazkur pedagogik holatda izlanish muhiti hosil bo'lib, bunda o'quvchilar o'z oldiga qo'yilgan muammolarni faolroq yechishga kirishadilar

O'tilgan materialni takrorlash xam bilimga qiziqishni paydo qilishga va mustahkamlanishiga asos bo'lishi hamda o'quvchilar qiziqishini uyg'otish uchun masala va mashq tarzidagi o'yinlar, ishchanlik o'yinlari, modellash o'yinlari va boshqa didaktik o'yin shaklidagi ish shakllari xam qo'llaniladi. O'yin vaqtida har bir o'quvchining faolligi namoyon bo'ladi, ayrim o'quvchilar yoki jamoalar orasida musobaqa paydo bo'ladi. O'yinda faqat o'rganilgan materialni biladigan o'quvchilar ishtirok eta olishi sababli ular o'yinga faqat o'yin sifatida emas, balki jiddiy vaqiziqarli ish sifatida qarashadi. Kimyo o'qitishda didaktik o'yinlardan foydalanish masalalari adabiyotlarda ma'lum darajada yoritilgan. Odatda o'qituvchilar o'quvchilarga katta hajmdagi axborotni yetkazish uchun rejalashtirilgan darslarda yangi materialni asosan o'zlari bayon qilishni afzal ko'radi. Ammo amaliyot shuni ko'rsatdiki, o'qituvchi bayonini eshitish orqali yangi materialni o'zlashtirish, uni o'qituvchi rahbarligi ostida mustaqilo'rganishga nisbatan ancha samarasiz. Shu bilan birgalikda mustaqil ish uchun xam chegaralar mavjud. Agar yangi material mazmunining ko'p qismi avval olingan bilimlar va malakalar asosida yoritiladigan bo'lsa, u holda topshiriqlar yordamida uni mustaqilo'rganishni tashkil etish mumkin.

O'quvchilar topshiriqni bajarish uchun talab qilinadigan amallarni bajarishga tayyor bo'lgandagina ularning ishi faol bo'ladi.

Moddalarning tarkibi, tuzilishi, xossalari, olinishi va ishlatilishiga doir faktik materiallar o'quvchilar uchun nisbatan osonroq o'zlashtirilishi aniqlangan. Uni o'zlashtirishda moddalarni nomlash, tavsiflash vahodisalarni tushuntirish kabi ma'lum amallar talab qilinadi.

Tushunchalarni o'zlashtirish – ancha murakkab faoliyat. Buning uchun taqqoslashni to'g'riqollash, abstraktlashtirish, analogiyani qollash va boshqa tushunchaning muhim sifatlarini aniqlash talab qilinadi O'quvchilarning mustaqil bilim olish faoliyatida darslik bilan ishlash muhim o'rin tutadi.

Kitob bilan mustaqil ishlash ko'nikmasini rivojlantirish uchun darslarda darslik bilan muntazam ishlash juda muhimdir.

O'qituvchi darslarda yangi material o'rganilganidan so'ng yoki o'rganish jarayonida darslik bilan ishlashga doir topshiriqlar beradi. Mustaqil ishlashga dars davomida faqat mashqlar, masalalarnigina emas, balki agarda uning mazmuni mazkur sinf o'quvchilariga yetarlicha tushunarli bo'lsa, mavzuning ma'lum qismini o'rganishni berish kerak.

O'qituvchi birinchi darslardayoqo'zlashtirishda qanday qilib yaxshi natijalarga erishish mumkinligi haqida maslahatlar beradi. Bu o'quvchilarda o'z kuchlariga ishonch ruhini shakllantiradi. O'qituvchimashxulotni boshlagan zahoti darslik bilan qanday ishlash kerakligi, qanday qilib uyga berilgan topshiriqlarga mustaqil tayyorlanish kerakligi haqida ko'rsatma beradi. Mustaqilo'quv ishini optimal tashkil etish yuzasidan berilgan bunday tavsiyanomalar o'quvchilarga mustaqil ish faoliyatining u yoki bu turini qanday tashkil etish kerakligini ko'rsatadi.

O'quvchilar mustaqil ishlarining amaliy natijasiga ko'ra samaradorligini oshirish maqsadida kimyo o'qituvchisi o'quv jarayonida ularga quyidagi yo'nalishlar bo'yicha ko'rsatma beradi: kimyo darsligidan samarali foydalanish, qo'shimcha adabiyotni o'sish texnikasi, ma'lumotnoma bilan ishlash metodikasi,

matn bo'yicha reja tuzish, konspekt yozish, kimyoviy tenglamalar tuzish, jadval hamda sxemalar tuzish va ulardan unumli foydalanish, laboratoriya, amaliy va tajriba ishlariga mustaqil tayyorlanish, mustaqil mulohaza yuritish, ma'ruza tayyorlash, o'zining bilimlarini mustaqil tekshirish tizimidan foydalanish va boshqalar.

Kitob va maktab darsliklari ustida mustaqil ishlash malakalarini rivojlantirish masalalari ko'pgina ilmiy va metodik adabiyotlarda yoritilgan.

Ba'zan o'quv guruhining tarkibiga, uning tayyorgarlik darajasiga qarab o'quvchilarning mustaqil ishlashlarini qo'shib olib borgan holda ma'ruza-suhbat metodlari qo'llaniladi hamda seminar mashxulotlari o'tkaziladi.

Ma'ruza-suhbatlarda predmetni ijodiy o'rganish uchun nisbatan yaxshi sharoit yaratiladi: an'anaviy bo'lgan uy vazifasini tekshirish, o'quvchilarni nazorat qilish va bilimlarini hisobga olish amallari bajarilmaydi, balki o'quvchilarning diqqat-e'tibori ma'ruzani tinglashga jalb etiladi va mavzuning oraliq savollarini chuqurroq tushuntirish imkoniyati yaratiladi. Bunda o'quvchilar mustaqil ishining ahamiyati keskin ortadi, seminar yoki amaliy mashxulot davomida turli – tuman mustaqil ishlar turlarini bajarish, bahslashuv va muhokama o'tkazishga ko'proq vaqt ajratiladi. O'quv materiali bunday bayon etilganda o'quvchilarda barcha mavzularni o'rganishdan ko'proq maqsadli tasavvur qoladi, ular darslik bilan ko'proq mustaqil ishlash, ma'ruzalarni yozish imkoniyatiga ega bo'lishadi.

Unda o'rganilayotgan tushunchalar, qonuniyatlar, fikrlar ochib beriladi, o'qituvchi esa tahlil va sintez bilan muhokama qiladi, mantiqiy fikrlashlar bilan o'quvchilarni xulosa va umumlashtirishlar qilishga olib boradi. Aynan mana shu holat kimyo kursining nazariy asoslarini o'rganishda asosiy va belgilovchi hisoblanadi.

Seminar mashxulotlari o'quvchilar mustaqil ishlarining faol formasi hisoblanadi. Aynan mana shu mashxulotlarda «o'qituvchi – o'quvchi» ning o'zaro bog'liqligini to'laqonli amalga oshirish, o'quvchilarning o'rganilgan materialni ongli ravishda egallashlariga, tushunarsiz savollarga javob olishlariga erishish

mumkin. Qatorxolarda sinfda munozara yuz beradi, bunda o'quvchilar o'zaro bahslashib, boshqalarni ishonitirishadi. Bular-ning xammasi o'quvchilarning bilimlarini kengaytiradi .

Seminar mashxulotlarida o'quvchilarning ishlarini kuzatib ularning o'sishlarini baholash imkoniyati vujudga keladi.

Seminar oldidan konsulyatsiya o'tkaziladi. Bunda o'qituvchimashxulotning ushbu turi va unga tayyorgarlik ko'rish talablari haqida so'zlab beradi.

O'quvchilarga ta'lim berishda yaxlit ma'ruza – seminar tizimini joriy qilish masalalari ilmiy-metodik adabiyotlarda yetarlicha ochib berilgan .

N.P.Guzik ma'ruza – seminar usullarini boshqao'qitish metodlari bilan mohirona birlashtirdi. Uning bu ish tizimi darslarning quyidagi besh tipini o'z ichiga oladi:

1. Ma'ruza – ko'rsatmalar berish darslari.
2. O'quvchilarning o'quv materiali ustida individual ishlari amalga oshiriladigan kombinatsiya qilingan seminar mashxulotlari.
3. Avvalo'rganilgan mavzular yuzasidan sinovlar tarzida xamo'tkaziladigan bilimlarni umumlashtirish va tizimga solish darslari.
4. Materialni predmetlararo umumlashtirish darslari.
5. Amaliymashxulotlar shaklida o'tkaziladigan darslar.

Bunday ish tizimi o'sishning asosiy qismini darsning o'zida o'tkazish imkonini beradi, bu bilan an'anaviy reproduktiv uy vazifalari mustasno qilinadi va ular ijodiy mustaqil ishlar bilan almashtiriladi. Bu tizim barcha o'quvchilarning sinfda mustaqil ishlash jarayonini faollashtiradi va ularning iloji boricha ko'proq aqliy rivojlanishlari uchun yordam beradi. Bunday ish usullari bolalarning o'sish jarayonida har tomonlama xamkorlik qilishlariga ko'maklashadi. Ular o'zlashtiriladigan mavzuning o'quv materialini har xil aloqadorlikda va turlicha namoyon qilish orqali bir necha marta takrorlashga har bir O'quvchiga zarur bo'lgan vaqtni berishga imkon yaratadi.

Bularning xammasi o'quv materialini o'quvchilarning to'liqva chuqur o'zlashtirishlariga yordam qiladi.

O'quvchilarning nazariy bilimlarini mustahkamlash, ularda ekologik e'tiqodni, mehnatga to'g'ri munosabatni shakllantirish hamda ularni ilmiy izlanishlarga yo'naltirishda kimyoviy tajribaning ro'li benihoya katta.

Kimyo o'qitish amaliyotida qo'llaniladigan kimyoviy tajribalar ikki turga bo'linadi:

1. Ko'rgazmali (namoyishli) tajribalar. Ular asosan o'qituvchi tomonidan bajariladi.

2. O'quv tajribalari (laboratoriya tajribalari), amaliy mashxulotlar, amaliyot o'tkazish, eksperimental masalalar yechish kabilar esa o'quvchilarning o'zlari tomonidan bajariladi.

Ko'rgazmali tajribalar, dastavval, o'quvchilar oldindan o'rganadigan mavzu va voqelik bilan tanish bolmagan va kuzatishga tayyor bolmaganholda o'tkaziladi. Bunday vaqtda o'qituvchio'rganiladigan mavzuni ko'rsatibgina qolmay, balki uni kuzatishni xam tashkil etadi.

O'quvchilar tomonidan bajariladigan o'quv tajribalari esa mustaqil ishning bir turi hisoblanadi. Bunda o'quvchilarning mustaqil ishlari yangi mavzuni o'rganish, uni tekshirish va puxtalashga qaratilgan frontal tarzda yoki guruhlarga bo'lib bajariladigan laboratoriya tajribalaridan, amaliy mashxulotlar va eksperimental masalalarni yechishdan iborat bo'ladi.

Laboratoriya tajribalari yangi o'quv materialini o'qitishda ko'proqqo'llaniladi. Bunda o'quvchilarning kimyoviy eksperiment o'tkazish texnikasi va metodikasini egallash borasidagi ko'nikma va malakalari orta boradi.

Amaliy mashxulotlarni ayrim mavzular o'tilgandan keyin o'quvchilarning o'zlari mustaqil tarzda bajaradilar. Amaliy mashxulotlar mavzu tamom bo'lgandan so'ng bilimlarni mustahkamlash va takomillashtirish, aniqlashtirish, amaliy ko'nikmalarni shakllantirish, o'quvchilarda mavjud bo'lgan ko'nikma va malakalarini turg'unlashtirish uchun o'tkaziladi.

O'quvchilarning laboratoriya tajribalarini bajarishlari uchun ayniqsa, kimyo kursini o'rganishning boshlarida ularga o'qituvchining bevosita ishtiroki va rahbarligi talab qilinadi. Bunda u tajribalar o'tkazishdagi xavfsizlik texnikasi qoidalariga alohida e'tibor qaratadi. Chunki har qanday kimyoviy eksperiment inson uchun ma'lum darajadagi xavf-xatarga ega bo'ladi.

Yuqori sinflarda o'quvchilar tegishli malakalarga ega bo'lganlaridan keyin o'qituvchining vazifasi umumiy rahbarlikning o'zi bilangina cheklanadi. Amaliy mashxulotlarni bajarishda va eksperimental masalalarni yechishda o'quvchilarning mustaqilligi yanada ortadi.

Eksperimental masalalarni mustaqil yechish o'quvchilarning aqliy zakovati imkoniyatlarini yanada faollashtirishda alohida ahamyat kasb etadi.

Laboratoriya tajribalari va amaliy mashxulotlarni bajarish, shuningdek, eksperimental masalalarni yechish orqali o'tkaziladigan mustaqil ishlarning O'quvchilar bilim darajasining oshishidagi ahamyati adabiyotlarda keng yoritilgan

3.2.2. Uyda bajariladigan mustaqil ishlar

Darsdan tashqari ishlarning shakl va turlari juda ko'p bo'lib ularni 2 guruhga ajratiladi sinfdan tashqari va maktabdan tashqari ishlar.

Ko'rgazmali qurollar tayyorlash, devoriy gazeta chiqarish, kimyo to'garagi mashxulotlari, kimyo kechalari, viktorinalar, kimyo haftaliklari va dekadalar-sinfdan tashqari ishlarni tashkil etsa, ekskursiyalar, o'quvchilar saroyidagi tadbirlar, so'nggi turdagi olimpiadalar, yuqori darajadagi anjumanlar (konferensiyalar) va uy vazifalari-maktabdan tashqari tadbirlar va topshiriqlar majmuasiga kiradi.

Mustaqil ishlashning anchagina keng tarqalgan turi-uy vazifalarini (og'zaki, yozma yoki tajriba tarzida) bajarish hisoblanadi.

Mustaqil ishlash metodlari shunisi bilan xarakterliki, bunda o'quvchilar topshiriqlarni bevosita o'qituvchi ishtirokisiz bajaradilar. O'quv ishida esa to'la mustaqillik uy topshiriqlarini bajarishda namoyon bo'ladi.

Uyga vazifalar berishga yuzaki qarashga, unga ikkinchi darajali narsa sifatida munosabatda bo'lishga chek qo'yish kerak. Uy ishining muvaffaqiyatli bajarilishi o'qitishning asosiy tashkiliy shakli bo'lgan darsning eng muhim elementidir.

Darslarning samaradorligini oshirish uy vazifalari hajmini ma'lum darajada qisqartiradi. O'quvchilar turli tipdagi xotiraga ega bo'ladilar va materialni o'qituvchining tushuntirishi jarayonida yoki mustaqil ishlashda bir tekis o'zlashtira olmaydilar. Ularning ko'plari o'qituvchining mavzuni tushuntirishidan sing darslik matnini mustaqilo'sishva uning asosiy o'rinlarini ko'rib eslab qolishga muhtoj bo'ladilar. Boshqalari, matnni darsda o'qib, uning qiyin joylarini eslab qolish uchun hali o'qituvchining tushuntirishlariga va matnni uyda o'sishga ehtiyoj sezadilar.

Xatoo'quvchi materialni darsda o'zlashtirib olgan taqdirda xam unga uy vazifasi berish, faqat mavzu matnini qayta ishlab chiqishga doir emas, balki kuzatishlar, uy tajribalarini o'tkazish, ijodiy topshiriqlarni bajarish bo'yicha xam vazifalar berish foydalidir

Uy vazifalari, garcha darsliklarda savol va topshiriqlar tarzida aniq ko'rsatilgan bo'lsa – da, sinf o'quvchilarining umumiy saviyasi, bilim darajasi, tayyorgarligiga qarab, ularni qisqartirish yoki kengaytirish mumkin. Ammo har qanday holatda xamo'qituvchining aniq metodik ko'rsatmalari taqozo etiladi. Negaki, muayyan mavzu yuzasidan vazifalarning to'g'ri, aniq, qisqa va qiziqarli yo'sinda berilishi o'qitish metodikasining muhim talablaridan biridir.

Mustaqil ishlarning katta qismini darslik matni ustida ishlash topshiriqlari tashkil etadi. O'quvchining uyga berilgan o'quv topshiriqlari ustidagi faoliyati dars jarayonidagi faoliyatidan shunisi bilan farqlanadiki, u topshiriqni bajarishda o'qituvchi maslahati, sinf jamoasining yordamiga emas, balki o'z bilimi va tajribasiga tayanadi. Tashqi ta'sirning bo'lmasligi mustaqil ishni bajarishdagi O'quvchi imkoniyatlariga keng yol ochadi. O'quvchining darslik matni ustida ishlash jarayonida

mustaqil fikrlash malakasi shakllanib, yangicha o'quv – biluv sifati tarkib topadi. Bunday o'quvchilar uchun ta'lim jarayoni majburiyat emas, zavqli mashxulotlarga aylanadi.

Uyda mustaqil ishlashning uch bosqichini ajratish mumkin, ular tayyorlov yoki tashkiliy ish, mustaqil ish vao'z – o'zini nazorat qilish hamda xatolarni to'g'rilashni o'z ichiga oladi. Har bir o'quvchi o'zining imkoniyati, ish sur'ati va uslubi, topshiriqlarning mazmuni, bajarish va o'z – o'zini nazorat qilish usullarini hisobga olgan holda taxminiy mustaqil ish rejasini belgilaydi.

O'qituvchi ko'pincha uy topshiriqlari bilan birga og'zaki, yozma ravishda qisqacha yoki batafsil ko'rsatmalar beradi.

O'quvchilar, ayniqsa, uyga berilgan masalalarni yechishda qiynalishadi, bu faqatgina vaqtning yetishmasligi bilan emas, balki tegishli masalalarni yechish uchun zarur bo'lgan mantiqiy xulosalar chiqarish uchun kerak bo'ladigan tegishli fikrlash faoliyatini qanday izchillikda yo'naltirishni bilmaslik bilan tushuntiriladi .

O'quvchilarning kimyodan mustaqil ravishda masalalar ishlashlarini yengillashtirishlari uchun ularga tarqatma material – eng xarakterli masalalar yechimlarining namunalari berish mumkin. Masala yechimining tizimlashtirilgan namunalari o'quvchilarning uyda ishlash sharoitida ularning mustaqil ish natijalari samaradorligini oshiradi, yengillashtiradi. Dastlab, yordamchi materiallardan foydalanib o'quvchilar o'xshashlik tamoyili bo'yicha kimyoviy masalalar yechishadi. Natijada ular tipaviy masalalar bilan birga mustaqil ijodiy yondashishni talab etadigan masalalarni xam yechishadi.

Uy sharoitida ratsional o'quv faoliyatini, ayniqsa, darsga va sinovlarga tayyorlanishni, ushbu bo'lim bo'yicha maxsus ishlab chiqilgan savollar va topshiriqlarsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Faqat mana shu holda, agar o'quvchilar mustaqil ishni reja asosida tashkil etsa, agar ularga tegishli bilimlarni o'zlashtirishga yordam beruvchi turli didaktik materiallar berilsa, agar ular o'z – o'zini tekshirish uchun tizimlashtirilgan savol va mashqlar olishsagina o'quvchilarning mustaqil ish faoliyati bormoqda, tashkil etilmoqda, o'qituvchi rahbarlik qilmoqda, deyish mumkin.

Uy topshiriqlari tizimi shunday bo'lish kerakki, o'qituvchi dars davomida o'kuvchining ishini oson tekshirishga, u materialni qanday o'zlashtirilganligini baholashga vayolqo'yilgan kamchiliklarini o'z vaqtida to'g'rilash uchun qanday mashqlar taklif qilish zarurligini aniqlashga imkon bersin.

Barcha o'quvchilar uchun beriladigan umumiy topshiriqlar bilan bir qatorda (darslik ustida ishlash, mashqlar yechish vah. k) ba'zan yozma individual yoki guruh uchun topshiriqlar berish kerak bo'ladi.

Iqtidorli o'quvchilar masalalar yechish borasida va uy vazifalarini bajarish asnosida boshqalardan ajralib turadi. Ularni turli tanlovlar va olimpiadalarga tayyorlash hamda ularning individual talablarini qondirish uchun murakkab vazifalarni hal etishga jalb qilish muhim ahamyatga egadir. Bunda o'qituvchivao'quvchi xamkorligining dars va darsdan tashqari vaziyatlardagi yangi ko'rinishi namoyon bo'ladi.

Uy topshiriqlari tizimini ishlab chiqishda shu narsaga intilish kerakki, unda nafaqat o'rganilgan materialning mustahkamlanishi, balki o'zlashtirilishi qiyin bo'lgan vazifalarning xamhal etilishi ko'zda tutilishi kerak.

Uy topshiriqlari tuzilishi jihatidan ixcham, mantiqiy tarafdin puxta tanlangan bo'lishi lozim.

Uy topshiriqlariga fikran bajariladigan eksperimental yoki eksperiment o'tkazish kabi uy sharoitida bajarish mumkin bo'lgan tadqiqot elementlarini kiritish mumkin. Bunday topshiriqlarga ichimlik sodasi va sovunning gidrolizlanishiga temperaturaning ta'sirini o'rganish, shuningdek, korroziya jarayonining borish qonuniyatlarini tadqiq qilish, kraxmalli oziq mahsulotlarga sifat reaksiya kabilarni misol sifatida keltirib o'tish mumkin.

Uy sharoitida bajariladigan tajriba va eksperimentlarning o'quvchilar bilimining sifatiga ta'siri I. I. Balaev va G.A.Shipareva ishlarida qisman o'rganilgan.

V.YA. Vivyurskiy va YE.V.Zyazeva ishlarida differensial uy topshiriqlariga katta e'tibor berilgan.

Nukus shahri XTMFMT va TEB ga qarashli 38 sonli Umumta'lim maktabining 8 sinfida pedagogic amaliyotni o'tkazuvchi Ajiniyoz nomidagi NDPI Tabiiy fanlar fakulteti 4 b kurs talabasi Raximova Dilduzaning 2018-yil 5-mayda biologiya fanidan 8 sinfiga o'tgan bir soatlik ochiq darsiga tayyorlagan dars ishlanmasi

Fan: Biologiya

Sinf: 8

Mavzu: ZOOLOGIYA

Vaqt: 45 daqiqa

Dars maqsadlari:

Ta'limiy maqsad: o'quvchilarga yirtqich qushlar asosi mavzusi yuzasida nazariy ma'lumot berish.

Tarbiyaviy maqsad: o'quvcgilarni Vatanimizga hurmat ruhida tarbiyalash.

Rivojlantiruvchi maqsad: o'quvchilarni fikrlash qobiliyatini rivojlantirish.

Ta'limiy: O'quvchilarga yirtqich qushlar haqida bilim berish;

Tarbiyaviy: O'quvchilarga yirtqich qushlar umumiy ma'lumotlar berish orqali tarbiya berish;

Rivojlantiruvchi: yirtqich qushlarni o'rganish orqali izohlay olish ko'nikmalarini rivojlantirish hamda o'z fikrlarini asoslay olish ko'nikmasini rivojlantirish;

Dars turi: Kombinatsiyalashgan (aralash)

Dars tipi: Noan'anaviy

Darsda qo'llaniladigan metodlar: test, amaliy, interaktiv metodlar,

Darsda qo'llaniladigan jihozlar:

1. Noutbuk, proektor, yangi mavzuga oid slaydlar
2. Plakatlar, suratlar, genetik simvollar
3. Har bir o'quvchi uchun tarqatma materiallar, didaktik kartochkalar

4. Har bir guruhga tegishli topshiriqlar, elim, qaychi, skoch, A-3 qog'ozlari

Tayanch iboralar: qora kalxat miqqiy tasqara jorchi burgut qarchigay, tungi yapaloq qushlar

Dars jarayoni:

1. Tashkiliy qism: O'qituvchining kirish so'zi, sinf ozodaligi va o'quvchilar davomatini tekshirish, zarur jihozlarni darsga hozirlash (2 daqiqa)



2. O'tilgan mavzuni so'rash.

a) uyga berilgan vazifani tekshirish.

- b) o'quvchilarni guruhlarga bo'lish. 1-guruh "Refleks", 2-guruh "Imunitet" 3-guruh "Tormozlanish".
- c) o'tilgan mavzuni Krosvord orqali baholash.



3. Yangi mavzu bayoni.

Mavzu: Yirtqich qushlar

Reja:

Kunduzgi yirtqich qushlar

Tungi yapaloq qushlar

Qushlarning inson hayotidagi ahamiyati

Kunduzgi yirtqich qushlarga: qora kalxat miqqiy tasqara jorchi burgut qarchigay va boshqalar uchiraydi.

Qora kalxat vohalar toqaylar va tog'larda xullas daraxtlar bolgan hamma joyda uchiraydi uchib borayotgan kalxatni ayri dumiga qarab bilib olish mumkin.

Tasqara -o'lkamizdagi uchiraydigan qushlarning eng yirigi tanasining uzunligi 1,5 m ga qanotlarini yozganda kengligi 3 metirgacha yetadi.

Yapaloq qushlar turkumiga ukki boyogli boyaqush kabi qushlar kiradi.

Yapaloqqushlar tunda hayot kechirishga moslashgan yirtqichlar

Ukki yapaloq qushlar orasida eng yirigi.

Boyogli ukkiga nisbatan ancha kichik.



4. Yangi mavzuni mustahkamlash: (9 min)

O'quvchilarga mavzuga Yirtqich qushlar suratlari har qaysi guruhga 4 tadan tarqatiladi. Ular berilgan suratlarga qarab, unda kasallik nomi, kelib chiqishi, uchrashi va boshqalar to'g'risida bilganlarini aytib o'tadilar. Har bir surat uchun 5 baldan beriladi.

Yangi mavzuni "Kimning moychechagi 1-ochiladi" metodi orqali mustahkamlandi.



5. Uyga vazifa: (1 min) Uyga vazifa yangi mavzuni o'qib kelish, mavzu yuzasida 5 ta test tuzib kelish:

Mavzuni yaxshilab o'qib, Yirtqich qushlar rasmlarini chizib, ularni to'ldirish

6. Darsni xulosalash, o'quvchilarning baholarini eshittirish (2 min)

XULOSA

Mazkur bitiruv malakaviy ish biologiya darslarida mustaqil ishlarni olib borish ahamiyatiga qaratilgan.

Malakaviy ishlarda asosan quyidagilarga alohida e'tibor berilgan:

1. Biologiya o'qitish metodikasining umumiy masalalariga unda ananaviy o'qitish bilan barobar hozirgi zamon ilg'or pedagogik texnologiyalariga;

2. Maktabda biologiya o'qitishning maqsad va vazifalariga batafsil to'xtab o'tildi. O'qitishning asosiy maqsadlari (talim beruvchi, tarbiyalovchi va rivojlantiruvchi) taraflari ochib beriladi.

3. Biologiya o'qitishda o'quvchilarni rivojlantiruvchi talim texnologiyalarida alohida etibor berildi.

4. Biologiya fanidan mustaqil ishlarni bajarishda yangi pedagogik texnologiya elementlarini foydalanish orqali o'quvchilarning bilimlarini reyting tizimi asosida odilana baholash juda yaxshi samarasini beradi. Natijada o'quvchilar o'zlariga chuqur bilimlarni va ijobiy tarbiya ko'nikmalarini olishadi.

5. Mustaqil ishlash metodlari shunisi bilan xarakterliki, bunda o'quvchilar topshiriqlarni bevosita o'qituvchi ishtirokisiz bajaradilar. O'quv ishida esa to'la mustaqillik uy topshiriqlarini bajarishda namoyon bo'ladi.

Uyga vazifalar berishga yuzaki qarashga, unga ikkinchi darajali narsa sifatida munosabatda bo'lishga chek qo'yish kerak. Uy ishining muvaffaqiyatli bajarilishi o'qitishning asosiy tashkiliy shakli bo'lgan darsning eng muhim elementidir.

6. Biologiya fanidan mustaqil ishlarni bajarish asosan sinfda dars o'qitish, laboratoriya va amaliy ishlarni bajarish hamda sinfdan tashqari ishlarni bajarish (gazetalar chiqarish, fan tugaraklarini ,ekskursiyalarni, biologik kechalarni tashkil qilish, biologiyadan ommaviy naturalistik tadbirlar o'tkazish,

sinfdan tashqari o'qishlarni va boshqa ko'pgina muhim tadbirlarni bajarish orqali amalga oshiriladi.

Xulosa qilib aytganda, oliy ta'lim muassasalarida istiqbolda ta'lim jaraenining pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, axborot resurslar bilan ta'minlanishi yanada bir qator vazifalar belgilanganki, bu yangilanishlar malakali mutaxassislar tayerlash sifati va samarodorligi oshishiga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Sh. Mirziyoev. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – T.: O'zbekiston, 2016. -56 b.
2. Sh. Mirziyoev. Tanqidiy tah'lil, qat'iy tartib-intizom va shah'siy javobgarlik h'a'r bir rah'bar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. – T.: "O'zbekiston", 2017. 104 b.
3. Uzviylashtirilgan Davlat talim standartlari va o'quv dasturi. Toshkent, "Marifat pres" 2010-yil.
4. M. Ochilov "Yangi pedagogik texnologiyalar" Qarshi: Nasaf, 2000-yil.
5. J.G. Yuldashev, S. A. Usmanov Pedagogik texnologiya asoslari. Toshkent, O'qituvchi, 2004-yil.
6. В.П. Беспалко. Педагогика и прогрессивные технологии обучения. Москва, ИРПО, 1995.
7. Г.К. Селевко. Современные образовательные технологии. Москва. Народное образование, 1998.
8. Э.С. Полат. Новые педагогические и информатизационные технологии в системе образования. Москва, "Академия". 2000.
9. Л.С. Гузей, В. В. Сорокин. Химия. Москва, "Дрофа" 2002.
10. О.С. Габриелян. Химия. Москва. "Дрофа" 2002.
11. I.N. Barisov, "Kimyoni o'qitish metodikasi" Toshkent, "O'qituvchi" 1996-yil.
12. M. Nishanov, Sh. Mamajonov, "Kimyoni o'qitish metodikasi" Toshkent, O'qituvchi 2002-yil.
13. Г.М. Чернобельская. "Основы методики обучения химии" Москва, "Просвещение" 1987.
14. L.V. Golish. Talimning faol usullari: mazmuni, tanlash, amalga oshirish, Toshkent, O'rta maxsus kasb-hunartalim markazi. 2011-yil.
15. Л.А. Цветков общая методика обучения химии. Москва, "Просвещение" 1986.
16. V.I. Sushko. "Maktabdagi kimyo" Toshkent, "O'qituvchi" 1991-yil.
17. O. Xudayqulova, Kimyo fani o'qituvchilari uchun uslubiy tavsiyalar. Namangan 1996-yil.
18. [http : // w.w.w. disser. hioru / pedagog. html](http://w.w.w. disser. hioru / pedagog. html).
19. [http : // w.w.w. zionet. uz /](http://w.w.w. zionet. uz /)

20. [http : // w.w.w. istedod. uz /](http://w.w.w.istedod.uz/)

21. [http : // w.w.w. pedagog uz /](http://w.w.w.pedagog.uz/)

HAYOT FAOLIYATI XAVFSIZLIGI

Jamiyat va tabiat asosi, uni o'z faoliyati bilan rivojlantiruvchi va boshqaruvchisi inson ekanligini e'tiborga olib, uning hayot faoliyatini yaxshilash, e'zozlash – taraqqiyot yo'lidagi muhim omili bo'lib hisoblanadi. Mustaqilligimizning dastlabki kunlaridan fuqarolarimizning hayot sharoitini yaxshilash, ularni turli ta'sirlardan saqlash, har qanday holatda ham ehtiyot etib, muhofaza etish asosiy ezgu maqsadimiz qilib olingan. Shuning uchun, malakali kadrlarni tayyorlashda ta'lim mazmunini inson hayot faoliyati xavfsizligini ta'minlash g'oyasi bilan to'ldirib, talabalar ongiga singdirish va bu borada ta'lim tarbiya, targ'ibotning zamonaviy usullaridan samarali foydalanish lozim bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasining «Aholi va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish», «Fuqaro muhofazasi to'g'risida»gi qonunlari va Favqulodda vaziyatlar vazirligining 2008 yil 3 sentyabrdagi 140-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan «Aholini favqulodda vaziyatlarda harakatlanishga tayyorlashga oid yo'riqnoma», O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2008 yil 28 oktyabrdagi 318-sonli buyrug'i ijrosini ta'minlash institutning barcha bakalavrlar malakaviy bitiruv ishining «Hayot faoliyati xavfsizligi» faniga asoslangan holda, shu fandan mashg'ulot olib borgan o'qituvchi maslahati bilan amalga oshirilishi ko'rsatilgan.

Shuning uchun bakalavriatura barcha ta'lim yo'nalishlari bitiruv malakaviy ishlarida (BMI) alohida «Hayot faoliyati xavfsizligi» bo'limi bajarilishi maqsadga muvofiq hisoblanadi.

BMI «Hayot faoliyati xavfsizligi» bo'limi, BMI umumiy topshirig'ida ilmiy maslahatchi rahbarligida, yakka tartibdagi topshiriqlarga asosan bajariladi. U quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- bo'lim ish rejasini BMI mavzusidan kelib chiqqan holda ilmiy rahbar va maslahatchi bilan kelishish;

- bo'limni yozish bo'yicha zarur bo'ladigan ma'lumotlarni to'plash.

BMI «Hayot faoliyati xavfsizligi» bo'limini bajarishda talabalarni bitiruv oldi amaliyotini o'tishi muhim ahamiyatga ega. Chunki, bu davrda talaba o'zi tanlagan korxona, tashkilot, laboratoriya va h.k. faoliyati, holati bo'yicha materiallarni yig'ib, qayta ishlab chiqadi va hisobotida ko'rsatishi mumkin.

Hayot faoliyati mehnat muhofazasining qonuniy asoslari- Hayot faoliyati xavfsizligi mehnat muhofazasining huquqiy, qonuniy asosini O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari, O'zbekiston Respublikasi qonunlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari va turli vazirliklarning ko'rsatmalari va buyruqlari tashkil etadi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida (1992 yil 8 dekabr): Oliy Majlisining vakolatlariga O'zbekiston Respublikasi Prezidentining umumiy yoki

qisman safarbarlik e'lon qilish, favqulodda holat joriy etish, uning muddatini uzaytirish va to'xtatish to'g'risidagi farmonlarini tasdiqlash kiradi (78-modda).

Mahalliy hokimiyat organlarning Konstitutsiyamiz tomonidan belgilangan vazifalari qatoriga jumladan quyidagilar kiradi:

- qonuniylikni, huquqiy-tartibotini va fuqarolarning xavfsizligini ta'minlash;
- mahalliy byudjetni shakllantirish va uni ijro etish, mahalliy soliqlar, yig'imlar belgilash, byudjetdan tashqari jamg'armalar hosil qilish;
- atrof muhitni muhofaza qilish (100-modda).

Konstitutsiyada eng avvalo inson huquqlarini himoya qilish ko'rsatilgan bo'lsa, shu bilan bir qatorda iqtisodiy va ijtimoiy huquqlar ham himoyalanih asosi berilgan.

Konstitutsiyaning IX bobi iqtisodiy va ijtimoiy huquqlarni himoyasiga qaratilgan. 36-moddada «Har bir shaxs qonunda ko'rsatilgan tartibda mehnat qilish, erkin kasb tanlash, odilona sharoitlarda mehnat qilish va ishsizlikdan himoyalanih huquqiga egadir» deyilgan va uning davomida «Sud hukmi bilan tayinlangan jazoni o'tash tartibidan yoki qonunda ko'rsatilgan boshqa hollardan (harbiy xizmat chog'ida, favqulodda holat sharoitida va h.k.) tashqari majburiy mehnat taqiqlanadi» deyilgan.

Konstitutsiyaning 37-moddasida «Barcha yollanib ishlayotgan fuqarolar dam olish huquqiga egadirlar. Ish vaqti va haq to'lanadigan mehnat ta'tilining muddati qonun bilan belgilanadi» deb, fuqarolarning dam olish huquqini amalga oshirilishini ta'minlaydi. 38-moddada «Har kim qariganda, mehnat layoqatini yo'qotganda, shuningdek boquvchisidan mahrum bo'lganda va qonunda nazarda tutilgan boshqa hollarda ijtimoiy ta'minot olish huquqiga ega, xuddi shuningdek pensiyalar, nafaqalar, ijtimoiy yordamning boshqa turlarining miqdori rasman belgilab qo'yilgan tirikchilik uchun zarur eng kam miqdordan oz bo'lishi mumkin emas» deb fuqarolarimizning hayot xavfsizligi ta'minlangan.

39-moddada «Har bir inson malakali tibbiy xizmatdan foydalanish huquqiga ega» deb tibbiyot xizmati hech bir cheklanishlarsiz, turli-tuman tibbiyot xizmati korxonalari tashkil etilishi va jumladan malakali tibbiyot xodimlari o'z shaxsiy davolash muassasalariga ega bo'lishi, davolash sohasida raqobat vujudga kelishi bilan Respublikamizda yashovchilar malakali tibbiyot xizmatidan foydalanish imkoniyati ta'minlandi.

O'zbekiston Respublikasi Mehnat Kodeksi mazmunida ishlab chiqarish korxonalari ma'muriyati mehnatkashlarga ishlab chiqarish bilan bog'langan har qanday shikastlanish yoki zararlanishni, shuningdek moddiy yo'qotishni qoplash majburiyatini oladi.

Xavfsiz ishlash sharoitini yaratish borasida yo'l qo'yilgan har qanday kamchilik yoki xavfsiz ishlash sharoitini tashkil qilmaslik natijasida ishchining baxtsiz hodisaga uchrashi sanoat korxonasining yoki rahbar xodimlarning aybi hisoblanadi. Moddiy yo'qotishni qoplash miqdori va tartibi maxsus qoidalar asosida olib boriladi.

Yuqorida biz mehnat qonuni, kodeksi va ayrim me'yoriy hujjatlardan qonun, qoida va ko'rsatmalardan ayrimlarini ko'rib chiqdik. Shulardan xulosa qilib

aytishimiz mumkinki, O'zbekistonda fuqarolarning hayot faoliyati yetarli qonun va qoidalar bilan kafolatlangan.

Mehnat xavfsizligi tadbirlarini yaratish va ularning ijtimoiy iqtisodiy samaradorligi

Hayot faoliyati xavfsizligida mehnat muhofazasi, qonunda ko'rsatilganidek:

- mehnat muhofazasi ish jarayonida insonning mehnat qobiliyatini, sog'ligi va xavfsizligini ta'minlash uchun yo'naltirilgan qonunlar majmuasi, sotsial-iqtisodiy, tashkiliy, texnik, gigiyenik, profilaktik tadbirlarni o'z ichiga qamrab olar ekan, demak barcha jabhalarda fuqarolarning mehnat qilish sharoiti talab darajasida yaratilishi lozim.

Hayot faoliyati xavfsizligi fanining metodologik asosining yana bir tomoni, bu mehnat sharoitini, texnologik jarayonni, ajralib chiqadigan zaharli moddalarni va foydalanish vaqtida paydo bo'ladigan xavfli vaziyatlarni muntazam ravishda ilmiy tahlil qilib borishdir. Chunki, faqat tahlil asosida ishlab chiqarishdagi xavfli joylar, sodir bo'lishi mumkin bo'lgan xavfli vaziyatlar aniqlanadi, ularning oldini olish va bartaraf etish choralari ishlab chiqiladi. Bu masalalarning barchasi o'zaro bog'langan, kelajak rejalarni hisobga olgan holda ko'rib borilishi lozim.

Ishlab chiqarishda, tashkilotlarda har bir rahbar va muxandisning O'zbekiston Respublikasi «Mehnatni muhofaza qilish to'g'risida»gi Qonuniga amal qilish, ishlab chiqarish xavfsizligi masalalarini ish faoliyatida to'g'ri hal etishi, uning shu sohadagi bilim va malakasiga bog'liq. Hayot faoliyati xavfsizligi bilan bir qatorda uning tarkibiy qismi bo'lgan mehnatni texnika xavfsizligi hamda yong'inning oldini olish masalalari hozirgi vaqtda eng dolzarb masalalardan hisoblanadi.

Bu borada, yalpi safarbarlik bilan tashkilotlarda mehnat xavfsizligiga doir barcha qaror va hujjatlarni tahlil qilish, kelgusida mehnat xavfsizligi darajasini ko'tarish, ish yuritishda texnika xavfsizligi mashg'ulotlarini o'tkazish, mehnat muhofazasi ishlarini tashkil etish, o'quv yurtlari o'qituvchilari, talabalari, xizmatchi va ishchilari o'rtasida shikastlanishning oldini olish hamda davlat standarti masalalari talablariga rioya etish maqsadida «Mehnatni muhofaza qilish to'g'risida» Qonunning qabul qilinganligi maqsadga muvofiq bo'lib, bu sohadagi barcha chora-tadbirlar aynan qonun asosida talab etiladi.

3. Ishlab chiqarishda jarohatlanish va kasb kasalliklarining tahlili

Sanoat korxonalarida xavfsizlik texnikasi, sanoat sanitariyasi va yong'in xavfsizligi qoida, norma va yo'riqnomalariga rioya qilmaslik jarohatlanishga, zaharlanishga va kasb kasalliklariga olib kelishi mumkin.

Inson tanasining teri yoki ayrim qismlariga tashqi mexanik, kimyoviy, issiqlik va elektr ta'siri natijasi jarohatlanish va shikastlanish deb tushuniladi.

Urinish natijasida lat yeyish, terining kesilishi, suyak sinishi va chiqishi, kuyish, sovuq urishi, elektr toki urishi va inson hayoti faoliyati buzilishiga olib keladigan boshqa cheklanishlar jarohatlanishga misol bo'ladi.

Jarohatlanishni va shikastlanishni baxtsiz hodisa deb ham yuritiladi va uch turga bo'lib qaraladi hamda baholanadi:

1. Ishlab chiqarishda, ish joyida jarohatlanish.

2. Ish bilan bog‘langan, lekin ishlab chiqarish bilan bog‘lanmagan.

3. Ishlab chiqarish va ish bilan bog‘lanmagan jarohatlanish.

Birinchi turdagi jarohatlanishga ishchining ma‘muriyat tomonidan buyurilgan ishni bajarishi davomida, ish joyida, sexda, korxona maydonida, yuk ortish va tushirish yoki yuklarni boshqa joyga ko‘chirish vaqtida olgan jarohati kiradi.

Ikkinchi turdagi jarohatlanishga ishchining ishxona transport vositalarida, ishga borib kelish vaqtida, komandirovka vaqtida, korxona ma‘muriyati topshirig‘i bilan boshqa joylarda ishlarni bajarganda olgan jarohati kiradi.

Uchinchi turdagi jarohatlanishga maishiy holatlarda, mast bo‘lish natijasida, davlat mulkini o‘g‘irlash vaqtida, uy sharoitida vujudga kelgan jarohatlanishlar kiradi.

Xavfsizlikni ta‘minlashda psixologiya, zaharli moddalar va kasb kasalliklarini ogohlantirish

Xalqaro tajriba, izlanishlarning ko‘rsatishicha maishiy ishlab chiqarishdagi shikastlanishlarning 60-90%i zarar ko‘rgan kishilarning mexnatini muhofaza qilishda psixologik bilimlarni tatbiq qilishni ifodalaydi. Bu yerda mexnat faoliyati jarayonida ko‘rinadigan psixologik holatlar turlari to‘liq tekshiriladi, psixologik jarayonlar, psixik xususiyatlar ko‘rib chiqiladi.

Insonning psixik faoliyatida uchta asosiy guruh: - psixik jarayonlar, xossalar, holatlar farqlanadi.

Psixik jarayonlar psixik faoliyatning asosini tashkil qiladi. Busiz bilimlarni jamlash, hayotiy tajribaga ega bo‘lish mumkin emas. Psixik jarayonlar bilish, sezish, his-tuyg‘u, qabul qilish, iroda, xotira va boshqalarga farqlanadi.

Psixik xossalar shaxsning o‘ziga xos xususiyatini, fazilatini (yo‘nalishi, karakteri, temperamenti) ifodalaydi. Shaxsning sifatlari (xossalari) ichida zukkolik, zakovatlilik, his-tuyg‘u, iroda, odob-ahloq, mehnat ajralib turadi va u o‘zgarmas hamda doimiydir.

Psixik holatlar xilma-xilligi, vaqtincha karakteri bilan farqlanadi va psixik faoliyatning xususiyatlarini aniqlaydi, psixik jarayonlarga foydali yoki foydasiz bog‘lanishi mumkin.

Mehnat psixologiyasi vazifalari va xavfsizlik muammolaridan kelib chiqib holatlarni ishlab chiqarish va maxsus psixik holatlarga ajratish maqsadga muvofiqdir. Bu ishlab chiqarishdagi shikastlanish, avariyaning oldini olish choralarini tashkil etishda muhim o‘rin tutadi.

Insonning qobiliyati, samarali mehnat faoliyati uning psixik (ruhiy) kuchlanishi darajasiga bog‘liq. Psixik kuchlanish insonning mehnatiga ma‘lum daraja – chegaragacha ijobiy ta‘sir etadi. Faollikni kritik nuqtadan yuqoriga ko‘tarish ish qobiliyatini yo‘qotishgacha olib kelishi mumkin.

Psixik kuchlanishning chegaradan yuqori shaklida insonning shaxsiy xususiyatlari pasayadi, harakat koordinati o‘zgaradi, xulqi samarasiz holatga o‘tadi yoki hayot faoliyatida boshqa salbiy o‘zgarishlar namoyon bo‘ladi.

Chegaradan yuqori psixik kuchlanishni xususiyatiga qarab tormozlovchi (to‘xtatuvchi), qo‘zg‘atuvchi turlarga ajratish mumkin.

Tormozlash xili inson harakatining pasayishiga va cheklanishiga olib kelishi bilan ifodalanadi. Kasb egasi vazifani avvalgidek shijoat bilan bajarishga qodir bo'lmaydi, javob berish xususiyati va tezligi pasayadi. Xotiralash, fikrlash jarayoni sekinlashadi, yomonlashadi va shu kabi boshqa salbiy omillar kuzatiladi.

Qo'zg'atuvchi xilida esa insonda faollikning pasayishi, ko'p gapirish (sergaplik), ovozning titrashi kuzatiladi. Natijada, ya'ni psixik kuchlanishning yuqori shaklida odamlarda murakkab sharoitlarda noto'g'ri harakatlanish va xatolarga yo'l qo'yish, toliqish sodir bo'ladi. Yuqoridagilarni hisobga olib inson psixik holatining nazoratiga katta e'tibor beriladi.

Insoning psixik holatiga ta'sir etadigan omillar – umidsizlanish, kayfiyatning buzilishi, qo'pollik alomatlari, yiqilib tushish, toliqish kabilar bo'lmasligi uchun tashkiliy chora-tadbirlar amalga oshiriladi.

Yengil stimulyatorlar (choy, kofe) ni qo'llash insonning ish qobiliyatini qisqa vaqtga oshiradi, uyqusini qochiradi. Ayniqsa, aktiv stimulyator (pervitin, fenamin) larni iste'mol qilish bilan harakatchanlik, sezish qobiliyati pasayadi.

Xullas, maishiy va ishlab chiqarish sharoiti asosida insoning psixik holati barqaror bo'lishi uchun chora-tadbirlar ko'rish, takomillashgan nazorat sulini uyushtirish asosida vazifalardan biri bo'lib hisoblanadi.